



УДК: 331.226:572(575.1)

Акбар БАБАБЕКОВ,

ЎзМУ Антропология ва этнология кафедраси мудири в.б. PhD.

E-mail: akbar.babaekov@mail.ru

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва дўстлик алоқалари қўмитаси катта илмий ходими, т.ф.н. Хўжахонов И. тақризи асосида

МАРОСИМ ИҚТИСОДИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Аннотация

Маълумки, ҳозирги глобаллашув шароитида дунёдаги барча халқ ва миллатларнинг кундалик ҳаёти ва оилавий-маиший турмуш тарзида ўзига хос этномиллий анъаналари, урф-одат ва маросимлари муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Қолаверса, маросимлар турли халқларни ўзаро ажратиб турувчи муҳим этнографик белгилардан бири ҳам ҳисобланади. Сўнгги йилларда маросим иқтисодини антропология, этнология ва социология соҳалари доирасида назарий жиҳатдан ўрганишга кенг эътибор берилмоқда. Инсон туғилганидан то ҳаётдан кўз юмгунига қадар ўнлаб маросимлар гувоҳига айланади. Гоҳида унинг марказий қаҳрамони, гоҳида иштирокчи, гоҳида оддий кузатувчи бўлади. Ҳамда маросимлар ҳаётнинг ажралмас қисми сифатида ҳамиша инсонга ҳамроҳлик қилади. Миллий қадриятларнинг қайта тикланиши ва маросимларга бўлган эътиборнинг ортиши натижасида уларни иқтисодий антропологик жиҳатдан чуқурроқ ўрганиш ҳамда моҳиятини тўлиқ очиб беришга бўлган эҳтиёжни юзага келтирди. Мазкур мақолада, Ўзбекистон Республикасининг тоғли туманлари, хусусан XX аср хронологик чегарасида Ўзбекистоннинг тоғли туманлари кишлоклари жумладан, Жиззах вилояти Зомин ва Бахмал туманлари аҳолиси мисолида ўзбеклар оила – маиший турмушидаги маросимлар суннат тўйи мисолида унинг иқтисодий антропологияси таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Ўзбеклар, иқтисодий антропология, маросим, иқтисоди назария, методологик асослари, оила иқтисоди, суннат тўйи, никоҳ тўйи.

ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS OF RITUAL ECONOMY

Annotation

It is known that in the conditions of modern globalization, unique ethno-national traditions, customs and rituals of all peoples and nations of the world are becoming increasingly important in everyday life and family life. In addition, rituals are one of the important ethnographic features that distinguish different peoples from each other. In recent years, much attention has been paid to the theoretical study of the ritual economy within the framework of anthropology, ethnology and sociology. A person becomes a witness to dozens of rituals from birth to death. Sometimes he is the central character, sometimes a participant, sometimes an ordinary observer. And rituals always accompany a person as an integral part of life. As a result of the revival of national values and increased attention to rituals, it became necessary to study them in depth from an economic and anthropological point of view and fully reveal their essence. This article analyzes the ritual economy in the family rituals of the Uzbeks on the example of “sunnat tui”, especially in the villages of the mountainous regions of Uzbekistan, including the villages of the inhabitants of the mountainous regions of the Zaamin and Bakhmal regions of the Jizzakh region in the twentieth century.

Key words: Uzbeks, economic anthropology, ritual, theory of ritual, methodological foundations, family economics, sunnat toi, rite.

АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РИТУАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

Известно, что в условиях современной глобализации все большее значение в повседневной жизни и семейно-бытовом укладе приобретают уникальные этнонациональные традиции, обычаи и обряды всех народов и наций мира. Кроме того, обряды являются одним из важных этнографических признаков, отличающих разные народы друг от друга. В последние годы большое внимание уделяется теоретическому изучению ритуальной экономики в рамках антропологии, этнологии и социологии. Человек становится свидетелем десятков ритуалов от рождения до смерти. Иногда он центральный персонаж, иногда участник, иногда обычный наблюдатель. А ритуалы всегда сопровождают человека как неотъемлемая часть жизни. В результате возрождения национальных ценностей и повышенного внимания к обрядам возникла необходимость их углубленного изучения с хозяйственно-антропологической точки зрения и полного раскрытия их сущности. В данной статье проанализирована ритуальная экономика в семейно-бытовых обрядах узбеков на примере “суннат туй”, особенно в селах горных районов Узбекистана, в том числе в селах жители горных районов как Зааминского и Бахмальского районов Джиззакской области в XX века.

Ключевые слова: Узбеки, экономическая антропология, ритуал, теория ритуала, методологические основы, семейное хозяйство, суннат туй, обряд.

Кириш. Бугунги кунда ҳар бир халқнинг ижтимоий-маданий, иқтисодий турмушида муҳим аҳамиятга эга бўлган табиий, ижтимоий ва иқтисодий воқеа-ҳодисалар маҳаллий аҳоли томонидан ўзига хос турли маросимлар шаклида нишонланиб келинмоқда.

Шу ўринда, энг аввало, маросим атамаси ҳақида қисқача тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Маросим атамаси аслида араб тилидаги “марсум” сўзидан

истеъмолга кириб келган бўлиб, лугатларда “чизилган”, “расм қилинган”, “одат тусига кирган”, “жамоавий расмий йиғин” деган маъноларини англатиши қайд этилган[1]. Одатда, “маросим” сўзи жамоатчилик иштирокида ўтказиладиган катта тадбир маъносини ҳам билдиради[2].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Маросим (ритуал) тушунчасини илмий таҳлилий ўрганиш XIX асрдан бошланди. XX асрдан ўрталаридан бошлаб,

маросимлар ҳақидаги билим ва қарашлар анча кенгайиб, мукамаллашиб борди. Маросим атамасига илмий таърифлар ва ёндашувлар кўпая борди[5]. Жумладан, А. Р. Раппапорт[6], Ф. Сталл[7], Клод-Леви Стросс[8], К. Гирц[9] каби антропологларнинг таърифларини келтириб ўтиш мумкин.

Тадқиқот методологияси. Европада маросим (ритуал) атамаси дастлаб халқ тажрибасининг универсал категорияси (тоифаси) сифатида тушунилан бўлиб, бу атама Европа маданиятини бошқа маданиятлар ва динлар билан таққослаш услубидаги янгича қарашларни ўзида акс эттирувчи тушунча сифатида ифодалана бошланди[3]. Шунингдек, маросимларнинг ижтимоий функциялар жихатлари аниқлаша борди. Масалан, маросимлар ва расм-русумлар ижтимоий гуруҳ аъзоларининг ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги хусусидаги француз социологи Э. Дюргеймнинг нуқтаи назари фикримиз далилидир[4].

Демак, кишиларнинг ижтимоий ва шахсий ҳаётининг барча томонларини ўзида камраган ва ўзаро муносабатларининг турли жихатлари ва шакллари тарзида намойён бўлувчи, муайян қондалар асосида махсус ўтказиладиган, халқ орасида қатъий анъанага айланиб қолган хатти-ҳаракатлар ҳамда одат тусига кирган тадбирларни маросим дея аташимиз мумкин.

Таҳлил ва натижалар. Инсоннинг ҳаёт йўли билан боғлиқ ҳолда бажариладиган маросимларнинг аксариятини оилавий урф-одат ва маросимлар: фарзанд туғилиши ва унинг тарбияси билан боғлиқ бўлган бешик тўйи, суннат тўйи, никоҳ тўйи, фотиҳа тўйи, тўй юбориш, киз оши (қизлар мажлиси), никоҳ ўқитиш, ёр-ёр, келин тушди, келин салом (юз очди), чарлар, қуда чақириқ маросимлари, оила аъзосини сўнгги йўлга кузатиш, яъни дафн ва таъзия билан боғлиқ уч, етти, йигирма, қирқ, оқ кийди кабилар ташкил этади. Албатта, оилавий маросимлар халқ тажрибасидан ўтиб, анъанавий тус олган бўлиб, ушбу оилавий маросимлар гуруҳида ўзига хос ўринга эга бўлган тўй маросимларининг иқтисодий антропологик таҳлиliga эътибор қаратамиз.

XX аср бошларидан то сўнгигача қадар бўлган даврда тоғли туманлар аҳолисининг оилавий маросимлари орасида “хатна тўй”, “ўғил тўй”, “суннат тўй”и алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Масалан, Жиззах вилояти Зомин тумани, Увол қишлоғлик ахборотчи Абдуқаҳҳор Исмоиловнинг таъкидлашича, Зомин туманининг ўзбек ва қирғиз қишлоқларида суннат тўйини ўтказиш деярли бир-бирига ўхшасада, тўйгача, тўй жараёнида ва ундан сўнг ўтказиладиган маросимлар ўзаро фарқ қилади[10]. Ўзбекистоннинг тоғли туманларида азалдан суннат тўйига барча керакли кийим-кечак, озиқ-овқат маҳсулотларини, совға-саломлар, қўйингки, тўйга нималар талаб этилса ўшаларнинг барчасини ҳозирлаш учун бир неча ойлаб тайёргарлик қўрилган. Шу жараёнда бир қанча маросим ва тадбирлар, турли ўйин ва томошалар ўтказилган. Тоғли минтақаларда одатда суннат тўйни ўтказиш ҳали қишлоқ хўжалиги ишлари бошланмасдан олдин феврал ойида бошланиб, март ва қисман апрел ойларида ўтказилган. Ҳар бир қишлоқ катта-кичиклигига қараб, ҳамда тўй қилувчи оила сонидан келиб чиқиб, ўртача бир мавсумда ўн ёки йигирмата, ҳафтасига бир ёки иккита тўй ўтказган.

Ўзбеклар оиласида тўй бошлашдан 15-20 кун олдин оиланинг яқин қариндошлари ва қишлоқ оқсоқоллари иштирокида “кичик маслаҳат” ва тўйдан 2-3 кун олдин қўни-қўшни, қариндошлар иштирокидаги “катта маслаҳат” ўтказилган, ҳамда тўй харажаатлари, сарфланадиган маҳсулотлар муҳокама қилинган, шунингдек, тўй зиёфатига “хизматчилар”, тўйга меҳмон “айтувчилар” (жарчи[11])лар тайинланиб, “тўй хатлари” жўнатишган[12]. Аммо таъкидлаш лозимки, XX асрнинг 60-йилларига қадар тўй олдидан тўй эгасиникида қишлоқ

оқсоқоллари ва маҳалла фаоллари, асосан эркаклар иштирокида “маслаҳат оши”и маросимини ўтказиш фақатгина иқтисодий имконияти бўлган кишиларгина ўтказишга оид бўлган. Маслаҳат кенгашида қўни-қўшни ва қариндошлар орасида тўй юмушлари муҳокама қилинган ва тақсимланган, жумладан одамларни тўйга тақлиф этиш ва тўйдан хабардор этиш учун “айтувчи” (тўй хатларини тарқатишга маъсул киши), “самоварчи”, “гўшт тарқатувчи”, оғборхонада “масаллик тарқатувчи”, “ўгин ҳозирловчилар”, “меҳмонни кутиб олувчилар”, “от-уловчи боғловчилар”, “дастурхончилик”, “қўноқ олувчилар”, тўйдаги ўйин ва томошаларни бошқариш, бош ҳакамлик, меҳмонларни кузатиб қўйиш ва ҳоказолар.

XX аср бошларида қишлоқлар аҳолисининг катта қисми иқтисодий жиҳатдан ночор бўлганлиги туфайли, оилада 2-3 нафар фарзандларни хатна қилиш бир кунда ўтказилган. Жиззах вилояти, Зомин тумани Қорамозор, Сарикамар, Бойтепа, Дуоба каби қирғиз қишлоқларидаги кексаларнинг эслашича, ўтмишда айрим суннат тўйини қилишга қурби етмаган камбағал оилалар бой қариндоши фарзандига қўшиб ўтказган. Аммо одатда энг камбағал қирғиз ҳам битта жонлик сўйиб кичик бўлсада, тўйни ўтказишга ҳаракат қилган[14]. XX асрнинг 30-йилларида ҳар хил йиғимлар, гўшт, сарёғ солиғи, дарахтларга, томорқаларга солинган солиқлар (масалан, бир туп ўрик учун 500 сўм солиқ) туфайли қўплар арпа нонига қорни тўк бўлса ҳам шукроналар айтадиган даврда тўй қилиш фақатгина орзу бўлганлиги ҳам ҳақиқат[15]. Шу боис ҳам қишлоқларнинг кўпчилиги аҳолиси катта тўй қила олмаган.

Аммо, XX асрнинг 70-80 йилларидан бошлаб, аҳолининг иқтисодий салоҳияти кўтарила бошлаши билан айрим қишлоқлардаги ўзига тўқ хонадонларда бир неча кун давом этган кўпқари ва турли томошаларга бой суннат тўйлари ўтказила бошлаган. Шунингдек, мазкур тўйларда катта мусобақалар жумладан, улоқ, кураш, пойга кабилар ҳам ўтказилган[16]. Бунга Сангзор-Зомин қирғизларида суннат тўйдан бир кун аввал ўтказилувчи “Улақ тартыш”, “Оодарыш” каби болалар ўйинлари мисол бўла олади[17].

Ўзбекистоннинг тоғли ҳудуд қишлоқларида “Кўпқари” – суннат тўйларининг анъанавий миллий халқ ўйини ва томошаси сифатида анъанавий тарзда ўтказиб келинган. Масалан, Оққўрғон қишлоғида яқин даврларгача фақат суннат тўйида кўпқари бериш одати бўлганлиги, ҳамда анъанага кўра тўйдан олдин тўй эгасининг ён-атрофидаги қариндошлариникида ёки қўни-қўшнилариникида узоқ масофадан келган меҳмонлар учун “қўноқ”[18] ҳозирланиб, меҳмонларнинг от-уловлари учун алоҳида ем-хашак, қўшнилари ёки тўй эгасининг ҳисобидан бўлганлиги ахборотчилар томонидан фахр билан тилга олинганлигини қайд этиш лозим. Улар учун дастурхонга тортилган “қўноқ оши” ва бошқа мевачевалар тўй эгасининг ҳисобидан бўлган[19]. Қўноқ тўйдан олдин бўлса, эрталаб қўноқ эгаси бошчилигида меҳмонлар тўйхонага боришиб, қишлоқдошлар “тўй оши”да иштирок этишиб, сўнг улар кўпқарига борган. Кези келганда, таъкидлаш лозимки, “кўпқари” ва “қўноқ оши” берилувчи тўйлар мавжуд шароит ва иқтисодий омилларга боғлиқ ҳолда XX асрнинг 90-йилларидан камая бошлади. Бунинг биринчи сабаби дейди, Сарикамар қишлоғи оқсоқоли Қўлдошев Мамаюсуф – барча оилалар ҳам от боқиб парвартириш имконига эга эмаслиги, иккинчи сабаби, халқ турмуш тарзининг тобора замонавийлашиши, ёшларни бўш вақтини ўтказишлари учун бошқа имкониятларнинг пайдо бўлиши (телевизор, видео, кино ва клублар фаолияти) ҳам кўпқари мусобақасининг камайишига, “қўноқ” берилувчи тўйларнинг ихчамлаштиришига олиб келди [20].

“Суннат тўйи” тўй дастурхонининг асосий таоми бўлган палов (ош) XX асрнинг 70-йилларидан бошлаб,

аҳолининг иқтисодий жиҳатдан бирмунча фаровонлиги тиклана бошлангандан сўнг таомилга кирган. XX асрнинг 60-70 йилларидан иқтисодий фаровонлик, тўқчилик бошланишида бир тўй учун 50-70-кило гуруч дамланган бўлса, чолқишчоклик аҳборотчи Маматкул Эргашевнинг таъкидлашича, 1989 йилда суннат тўйи учун 300 кг гуруч, 12 коп ун, 400 кг. сабзи, 50-60 литр ўсимлик (пахта) ёғи, битта новвос, 3 мингта нонвой нон сарфлаганлиги аҳолининг иқтисодий жиҳатдан фаровон ҳаёт кечириши билан бевосита боғлиқ бўлиб, бу яна бошқа бир қатор одатларни ҳам пайдо бўлишига замин яратди.

Таъкидлаш жоизки, ўзбек тўйларида тўй эгасига “тўёна” яъни, тўйга совға (қорамол, қўй-эчки, гилам, пул ва бошқа) бериш, шунингдек, тўйда хурмат-иззатли меҳмонларга ва хизмат қилганларга тўй эгаси тўн, яқтак (кўйлак), белбоғларни “қурук чикмасин” одати тарзида тарқатиши ҳам айнан XX асрнинг 80-90 йилларида урф бўлган. Шунингдек, тўй эгасига иқтисодий жиҳатдан энгиллик бўлсин учун қишлоқда кўпқари тўйи бераётган тўй эгасига унинг яқин қариндошлари “солин” (соврин) учун тойчоқ, қорамол, қўй-эчки, музлатгич, гилам ва олачалар, телевизор каби замонавий буюмлар ҳам тўйёна қилганларга ҳам юқорида келтириб ўтилган тўй сарполаридан (олиб келган тўйёнасига қараб) берилса бошлаганлиги фикримиз далилидир.

Маълумки, суннат тўйини ўзаро ёрдамсиз тасаввур этиб бўлмайди. Шу боис одатда, тўй олдидан кўни-қўшниқидан, идиш-товоқ, кўрпа-тўшак ва бошқа зарур буюмлар йиғиб тўйхонага келтириш анъанаси яқин 2000 йилларгача сақланиб қолган эди. Бу ижтимоий хусусиятга эга бўлган жараёнда барча ёшлар иштирок этиб, барча

ишларнинг боришини тўй “раиси” бошқариб турган бўлса, 2005 йилдан бошлаб қишлоқлар, айниқса туман маркази ва унинг атрофидаги қишлоқлар аҳолиси тўйларни вилоят ва туман марказида махсус қурилган тўйхоналарда ўтказишга бошлаши бу каби одатларнинг камайиб, йўқолиб кетишига сабаб бўлмоқда[21].

Хулоса ва таклифлар. Тоғли туманлар аҳолисининг оила бюджети, ижтимоий-иқтисодий турмуши, ҳаёт фаровонлиги даражаси шахсий деҳқончилик хўжалиги билан чамбарчас боғлиқ бўлиб келган. XX аср бошларида қишлоқлар аҳолисининг катта қисми иқтисодий жиҳатдан ночор бўлганлиги туфайли, оилада 2-3 нафар фарзандларни хатна қилиш бир кунда ўтказилган. Одатда энг камбағал қирғиз ҳам битта жонлик сўйиб кичик бўлсада, тўйни ўтказишга ҳаракат қилган бўлса, XX асрнинг 70-80 йилларидан бошлаб, аҳолининг иқтисодий салоҳияти кўтарилса бошлаши билан айрим қишлоқлардаги ўзига тўқ хонадонларда бир неча кун давом этган кўпқари ва турли томошаларга бой суннат тўйлари ўтказила бошлаган.

XX асрнинг 50-йилларидан бошлаб, Ўзбекистон тоғли туманлари қишлоқларида келин учун берилган қалиннинг бир қисмини никоҳ тўйини ўтказишга икоҳ тўй харажатларига ёрдам ҳиссаси сифатида берилса бошланиши, шунингдек, тўй харажатлари бир оиланинг иқтисодий имконияти доирасидан катта бўлгани боис, кимдир қўй, кимдир қорамол ва бошқа иқтисодий ёрдамни “тўйёна” сифатида бериши тўй эгасига анча катта иқтисодий ёрдам бўлган. Мазкур “тўйёна” бериш одати ҳозирга қадар ўз аҳамиятини йўқотмай келаётгани аҳолининг иқтисодий фаровонлиги ошиб борганлигидан далолатдир.

АДАБИЁТЛАР

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар) II-жилд. – Т.: Университет, 2003. 238 – б. / www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Панжиев Қ. Ўзбек маросим қўшиқлари ва уларнинг тарбиявий ҳамияти // Замонавий таълим / Современное образование. 2016, 6. 47- б.
3. Catherine Bell. Ritual theory, ritual practice. Oxford University Press, 2009. – P. 15.
4. Гидденс Э. Социология: Олий ўқув юртлири учун ўқув қўлланма / Таржимонлар Н. Маматов ва Ж.Бегматов – Т.: Шарқ, 2002. 510 - б.
5. Маросим ва унинг назарий концептуал жиҳатлари ҳақида антропологлар Клод Леви-Стросс (1944 й.), Э. Дюркгейм (1954 й.), Арнольд Ван Геннеп (1960 й.), Тернер (1969 й.) Гоффман (1967 й.), К. Гирц (1973 й.) ва Фуко (1975 й.), Кэтрин Бэлл (1992, 2009), Леонор ван ден Энде (2015) тадқиқотларида сўз юритилган.
6. “... Мен маросимни асосий ижтимоий акт дея ҳисоблайман” / Roy A. Rappaport, Ecology, Meaning and Religion (Richmond, Calif.: North Atlantic Books, 1979), - P. 174. Emphasis in the original.
7. “Маросим – бу маъно ва мақсадга эга бўлмаган фаолият” / Frits Staal. “The Meaninglessness of Ritual,” Numen 26, no. 1 (1975). –P.10.
8. “Маросим ўйиннинг энг яхши намунасига ўхшайди” / Claude Levi-Strauss. The Savage Mind, trans. George Weidenfeld and Nicolson Ltd. Chicago: University of Chicago Press, 1966. - P. 30.
9. “Маросимда яшаётган дунёмиз ва тасаввур қилинган дунё ... бир хил дунё бўлиб чиқади” / Clifford Geertz. The Interpretation of Cultures (New York: Basic Books, 1973). - P. 112.
10. Дала ёзувлари. Зомин тумани, Увол қишлоғи. 2019 йил.
11. Тўйга меҳмонларни жалб этиш хусусида қаранг: Турсунов Б.Р. Особенности семьи и семейных обрядов населения Ферганской долины в XX веке (на примере Канибадамского оазиса): Автореф. дис... канд. истор. наук. – Ташкент – Хужанд., 2002. – С. 16.
12. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Оққўрғон қишлоғи. 2019 йил.
13. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Новқа қишлоғи. 2019 йил.
14. Дала ёзувлари.Зомин тумани, Дуоба қишлоғи. 2019 йил.
15. Қораев С., Абдурахимов С. Тамтум ва тамтумликлар. – Т., 2007. – Б. 16.
16. Толипов Ф. Мозийга бўйлашган маскан (Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола). – Б. 131.
17. Мазкур болалар ўйинлари Наманган вилояти, Чортоқ тумани қирғиз қишлоқларида ҳам ўтказилган. Қаранг: Исҳоқов Б.Б. Болалар ўйинларининг этнографик хусусиятлари // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари мавзудаги IV-Республика илмий – назарий конференция материаллари. – Тошкент- Наманган, 2007. –Б. 254.
18. Қўноқ” – суннат тўйи кўни кўпқари ўтказилиши олдидан узок масофадан келган меҳмонлар жойлаштирилладиган жой.
19. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Оққўрғон қишлоғи. 2019 йил.
20. Дала ёзувлари. Зомин тумани, Сарикамар қишлоғи. 2019 йил.
21. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Оққўрғон қишлоғи. 2019 йил.



Жамшед ЖўРАЕВ,

Самарқанд давлат чет тиллар академик лицейи катта ўқитувчиси

E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Ў.Ж. Худаяров тақризи асосида

DEVELOPMENT OF ALTERNATIVE ENERGY SECTOR IN UZBEKISTAN

Annotation

Currently, the use of alternative energy sources is of great importance worldwide. During the years of independence, great work was done on the development of the alternative energy system in Uzbekistan. This article describes the development of the alternative energy system in Uzbekistan during the years of independence.

Key words: Alternative energy, Law “On Alternative Energy Sources”, photoelectric stations, wind energy, “Eco-energy” scientific center.

РАЗВИТИЕ АЛЬТЕРНАТИВНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В настоящее время использование альтернативных источников энергии имеет большое значение во всем мире. За годы независимости в Узбекистане была проделана большая работа по развитию системы альтернативной энергетики. В данной статье описывается развитие системы альтернативной энергетики в Узбекистане за годы независимости.

Ключевые слова: Альтернативная энергетика, Закон «Об альтернативных источниках энергии», фотоэлектрические станции, энергия ветра, научный центр “Экоэнергетика”.

ЎЗБЕКИСТОНДА МУҚОБИЛ ЭНЕРГИЯ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Аннотация

Ҳозирги кунда дунё микёсида муқобил энергия манбаларидан фойдаланишга катта аҳамият берилмоқда. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ҳам муқобил энергия тизимини ривожлантириш бўйича катта ишлар амалга оширилди. Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда муқобил энергия тизимининг ривожланиши ёритилган.

Калит сўзлар: Муқобил энергия, “Муқобил энергия манбалари тўғрисида”ги Қонун, фотоэлектрик станциялар, шамол энергияси, “Эко-энергия” илмий маркази.

Кириш. Мустақиллик йилларида жаҳон иқтисодиётининг ажралмас қисмига айланган Ўзбекистонда куёш энергиясини ривожлантириш бўйича кенг қўламли тадбирларни амалга оширилди. Хусусан, мазкур йилларида ушбу соҳадаги муносабатлар “Энергиядан оқилона фойдаланиш тўғрисида”ги[11], “Электр энергетикаси тўғрисида”ги[2] қонунлари билан тартибга солинди. Бу борада Давлат раҳбарининг 2013- йил 1-мартдаги “Муқобил энергия манбаларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони[3] алоҳида аҳамиятга молик ҳужжат бўлди. Фармондан кўзда тутилган мақсад тўпланган тажрибани эътиборга олган ҳолда тадқиқотлар ҳамда тажриба-саноат ишланмаларини юқорида техника ва илмий даражада ўтказишни янада давом эттириш, жаҳон тажрибасини ҳисобга олиб, юртимиз шароитида муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш борасидаги айрим ечимларни амалда қўллаш, шунингдек, мазкур соҳа учун замонавий ускуналар ва технологияларни шу ерда ишлаб чиқаришни ташкил қилиш чораларини кўришдан иборат эди. Энг муҳими, унда соҳа қонунчилигини такомиллаштириб, “Муқобил энергия манбалари тўғрисида”ги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш лозимлиги белгиланган эди. Чунки юртимизда йилнинг 270 кун куёшли бўлади ва бу энергия ишлаб чиқариш учун яхшигина имкониятдир. Ўзбекистоннинг ялпи куёш энергиясининг йиллик салоҳияти қарийб 51 миллиард тонна нефть эквивалентига ва техника салоҳияти 179 миллион тонна нефть эквивалентига тенгдир[9].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ўзбекистонда муқобил энергиядан фойдаланишни биринчилардан бўлиб академиклар Убай Орипов, Содик Азимовлар 1950-йиллардан бошлаб амалга оширдилар. Улар уйларни иситиш, иссиқ сув билан таъминлаш учун куёш

коллекторларини ишлаб чиқишда ва бир неча уйлarda тажриба синовлари ўтказишди. Куёш фотоэлементларидан олинган энергия ўша даврларда жуда қиммат, ёқилғиларнинг нархи эса аксинча арзон эди. Бугунга келиб вазият ўзгарди. Куёш энергиясидан фақат электр қуввати олиш учун эмас, балки ундан коллекторлар орқали сув иситишда, куёш ўчоғи орқали овқат, нон пиширишда, чучук сув олишда, меваларни қуришда фойдаланиш мумкин. Давлатимиз раҳбари томонидан қабул қилинган фармонда 100 МВт қувватга эга куёш фотоэлектрик станцияларини қуриш таъкидланди. Бу билан завод ва фабрикаларни, қишлоқларни, кичик шаҳарларни тўла электр энергия билан таъминлаш мумкин. Бундай қурилмалар энергияни сақлаш аккумуляторларига эга бўлиб, куёш бўлмаган вақтларда, тунда ҳам электр қуввати билан таъминлаш мумкин. Бу борада амалий ишлар ҳам амалга оширилиши йўлга қўйилди[9]. Жумладан, Республика Президентининг 2014-йил 4-июндаги “Самарқанд вилоятида қуввати 100 МВт бўлган куёш фотоэлектр станциясини қуриш” инвестицион лойиҳасини амалга ошириш бўйича чора тадбирлар тўғрисида”ги 2183-сонли қарори ижроси доирасида ва идоралараро тендер кенгашининг 2016-йил 27-октябрдаги қарорига биноан Самарқанд вилоятида қурилаётган 100 МВтли куёш фотоэлектр станциясини лойиҳалаштириш, қуриш ва эксплуатация қилиш бўйича асосий пудратчи деб “Зхухаи Сингес Грин Буилдинг Течнологий Со., Лтд” компанияси белгиланди[10].

Тадқиқот методологияси. Ўзбекистонда муқобил энергия манбалари ва энергетика экологияси каби йўналишларда илмий тадқиқот ишларининг олиб борилиши ҳам йўлга қўйилди. Жумладан, Тошкент давлат техника университети қошида ташкил этилган “Энергия

тежамкорлиги ва муқобил энергия манбалари” илмий тадқиқот лабораториянинг ташкил этилиши ушбу тадбирларнинг самараси бўлди. Мазкур илм масканининг ташкил этилишидан асосий мақсад муқобил энергия манбалари, энергетика экологияси каби илгор йўналишларда илмий тадқиқотлар олиб бориш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш деб белгиланди.

Мазкур соҳа олимларининг бу борадаги аниқ ҳисоб китобларига кўра 1 кВт қуёш фотоЭлектрик станцияси битта хонадонга етади. У олимлар томонидан лаборатория шароитида ишлаб чиқилган бўлиб, 15 миллион сўм атрофида маблағ талаб қилади. Масаланинг яна бир муҳим жиҳати шундаки, қуёш панеллари ёрдамида олинган электр энергиянинг таннархи асосан яримўтказгичли кремний баҳосига боғлиқ. Эндиликда Навоий вилоятида техник кремний олиш заводи ишга туширилганини инобатга олинса ҳамда бундай қурилмалар конвейер асосида ишлаб чиқарилса, нархи бунданда арзон бўлади. Агарда турар жойнинг томи қуёш панеллари билан қопланса, уйни хоҳлаган вақтда иситиш, хонадон эҳтиёжини тўлалигича электр энергия билан таъминлаш мумкин бўлади.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Физика-Қуёш” илмий-ишлаб чиқариш бирлашмасининг Физика-техника институти ҳам бу борада бир талай ишларни амалга оширди. Жумладан, мазкур институт олимлари томонидан қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланиш, гелиоматериал-шунослик, асбобсозлик соҳаларидаги фундаментал тадқиқотларнинг амалга оширилиши йўлга қўйилди. Ушбу илмий муассасада амалга оширилган тадқиқотлар натижалари мамлакатимиз иқтисодиётининг турли жабҳаларида кенг қўлланилиши йўлга қўйилди[8].

Масалан, бу ерда энергия таъминоти тизимлари учун стирлинг двигатели базасида ишлайдиган турли қувватга эга ноёб қурилмалар ишлаб чиқилди. Бундан ташқари, ушбу қурилмалар бир пайтнинг ўзида алоҳида истеъмолчини электр энергияси, иссиқ сув билан таъминлаш ва ҳавони совутиш учун мўлжалланган. Стирлинг двигатели исталган иссиқлик манбаи ёрдамида, шунингдек, турли шароитларда, ҳатто сув ости ва фазода ҳам ишлаш имкониятига эгаллиги билан ажралиб туради. Бу борада қуёш энергияси, радиоизотоп манбаи, биогаз ёки оддий ёқилғи иссиқлик манбаи сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, 5 кВт электр қувватига эга стирлинг двигатели иситиш ва маиший эҳтиёжлар учун қарийб 20 кВт иссиқлик ишлаб чиқариши мумкин. Институт олимлари ишлаб чиққан сувни қуёш ёрдамида чучуқлаштириш мосламаси, айниқса, қишлоқ жойларда кенг қўлланилмоқда. Ушбу мослама кунига 100 литргача чучуқ сув олиш имконини беради. Шу билан бирга, кўчалар ва майдонларни ёритадиган фотоЭлектр станциялар ва тизимлар кундузги ёруғлик имкониятларидан самарали фойдаланишга ёрдам беради. Улар истеъмолчиларни доимий ва ўзгарувчан кучланишга эга электр энергияси билан таъминлаш учун мўлжалланган. “Физика-Қуёш” илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси мутахассислари фермер хўжаликлари учун махсус ишлаб чиққан қудуқдан сув олиш фотоЭлектр қурилмаси бир кунда 60 кубметр сув олиш имконига эга.

Биринчи Президентимизнинг 2014 йил 1 мартда имзоланган “Халқаро қуёш энергияси институтини ташкил қилиш тўғрисида”ги[3] қарорига мувофиқ, Фанлар академиясининг “Физика-Қуёш” илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси негизида ташкил қилинган Халқаро қуёш энергияси институти мамлакатимизда муқобил энергия манбалари соҳасини ривожлантиришнинг мантқиқий давоми бўлди. Мазкур илмий даргоҳ зиммасига қуёш энергиясидан саноат кўламида фойдаланиш соҳасида

юқори технологик ишланмаларни амалга ошириш, илгор ва иқтисодий жиҳатдан самарали технологиялар асосида иқтисодиётнинг турли тармоқлари ва ижтимоий соҳада қуёш энергияси потенциалидан амалий фойдаланиш бўйича тақлифлар тайёрлаш ва бошқа шу сингари вазифалар юқлатилди.

Шу билан бирга гелиотизимлар ишлаб чиқариш тадбирлари ҳам олиб борилди. Жумладан, 2016-йилга келиб мамлакатимизда кўплаб гелиотизимлар ишлаб чиқарувчилар ва етказиб берувчилар фаолият кўрсатди. “Физика-Қуёш” илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси, “Еко-Энергия” илмий-тадқиқий маркази, “Мир Солар” масъулияти чекланган жамияти ва бошқалар шулар жумласидандир[8]. Улар ишлаб чиқараётган маҳсулотлар иқтисодиётнинг турли тармоқларида қўлланилмоқда.

Шамол энергияси. Ўзбекистонда очик текис ҳудудларда, тоғлар орасидаги водийларда, сув ҳавзаларига яқин жойларда (қўл, сув омборлари) шамолнинг йиллик ўртача тезлиги 3,5-6,5 м/сек.ни ташкил қилади. Ҳатто, битта кичикроқ ҳудуднинг турли қисмларида шамол тезлиги фарқ қилади. Масалан, Самарқанд шаҳрида 10 метр баландликда шамолнинг йиллик ўртача тезлиги 2,4 м/сек. Лекин аэропорт ҳудудида шамолнинг ўртача йиллик тезлиги 4,0 м/сек.дан ошади. Бунинг сабаби Зарафшон дарёси, дарё соҳилидаги қалин тўқайзор, очик тошлоқ Чўпонота тепалиги ва Самарқанд шаҳрининг ёнма-ён жойлашганлиги билан боғлиқ. Бу учта “географик майдон” устида ҳаво ҳарорати ва шунга боғлиқ ҳолда ҳаво босими фарқ қилади, натижада доимо эсиб турадиган маҳаллий шамолни келтириб чиқаради. Самарқанд вилоятида баландлиги 1000 метрдан 2000 метргача етадиган, баъзи чўққилари 2000 метрдан ошадиган тоғлар вилоятнинг 25-30 фоиз майдонини эгаллайди. Улар бир томондан шамол ҳаракатига тўсқинлик қилади. Иккинчи томондан эса тоғлар орасидаги ботиқлар, букилмалар, водийлар, сойлар, доvonлар ҳавонинг тез ҳаракатиغا шароит яратади. Бу “шамол йўлаклари”даги ҳаво оқими шиддат билан ҳаракатланиб кучли шамоллар ҳосил бўлади[6].

Мазкур муқобил энергия тури мавжуд табиий ресурсларни тежашдан ташқари, экология мусофқолиги билан ҳам аҳамиятлидир. Масалан, 1 МВт қувватли ШЕС 10 йил давомида 15 минг тонна кўмир, 45 минг баррел нефтни тежаш мумкин. Бундан ташқари, атмосферага карбонат ангидрид, сульфат оксиди, азот оксидларини умуман чиқармайди. Бир сўз билан айтганда, жуда фойдали бўлиши баробарида мутлақо безарар ҳамдир[1]. Шу боис кўплаб мамлакатларда ШЕСлар барпо этишга давлат аҳамиятига молик масала сифатида қаралмоқда. Жумладан, 2015-йилда оммавий ахборот воситалари Болтиқ денгизида бунёд этилган “Балтика-1” номли шамол парки фойдаланишга топширилгани ҳақида хабар тарқатди. Ушбу шамол парки 21 та шамол генераторидан иборат бўлиб, ҳар бирининг баландлиги 160 метргача етади. Шамол паракларининг диаметри эса 93 метр. “Балтика-1” соатига 185 гигаватт электр энергия ишлаб чиқариш қувватига эга. Бу бирданига 50 минг уй-жой энергия билан таъминланади, деганидир[1].

Мутахассислар томонидан юртимизда шамол энергиясининг ялпи потенциали 2,2 миллион тонна нефт эквивалентига тенг деб баҳоланган. Аммо бунда алоҳида ҳудудлардаги, жумладан — Устюрт ва Бекобод шамол энергияси имконияти тўла ҳисобга олинмаган. Қолаверса, бу кўрсаткич 58 метр баландликда ҳисобланган. Аслида эса 25100 метрда аниқланиши керак. Умуман, республикамизда доимий шамол эсиб турадиган очик ҳудудлар кўпдир[12].

Ўтган асрнинг 80-йилларида Навоий ва Бухоро вилоятларида бир қанча шамол энергияси билан ишловчи генераторлар ишлатилиб, бу борада тажриба тўпланганди.

Истиклол берган имкониятлар ҳамда Биринчи Президентимизнинг эътибори туфайли соҳанинг жадал ривожланиши учун тамал тоши қўйилди. Масалан, “Ўзбекенерго” давлат акциядорлик компанияси ва Кореянинг “Доожин со. Лтд” компанияси билан ҳамкорликда Чорвоқ сув омбори ҳудудида қурилган 40 метрга тенг анемометрик мачта йилига қўшимча 2,3 миллион киловатт-соат ҳажмда электр энергияси ишлаб чиқариш имконини бермоқда. Бу йилига 700 минг куб метр табиий газ тежаб қилинапти, деганидир. Шунингдек, Қорақалпоғистондаги парранда фабрикасида ўрнатилган шамол қурилмаси хусусида ҳам ана шундай илиқ фикрларни билдириш мумкин[1].

Ўзбекистон Республикаси Табиати муҳофаза қилиш давлат қўмитаси қошида 2005 йилдан буён фаолият юритиб келаётган “Еко-энергия” илмий-тадқиқий Маркази ҳам тегишли корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорликда жойларда ШЕСларни қуришда жонбозлик кўрсатиб келмоқда. Хусусан, кейинги йилларда жойларга аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ва сўғориш учун сув таъминотини яхшилаш мақсадида шамол генераторлари етказиб берилди[12].

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон бўйича шамол электр станцияларини қуриш метрологик жиҳатдан мос тушувчи туманлар жумласига Навойи, Бухоро, Қашқадарё, Тошкент тумани ва Қорақалпоғистон вилоятларини олиш мумкин. Жумладан Қорақалпоғистон вилоятининг Қазақдарё кишлоғидаги парандачилик фабрикасини электр энергияси билан таъминлаш мақсадида шамол станцияси ишга туширилди, Тошкент вилоятининг Чорвоқ кишлоғида эса гибрид қуёш-шамол электростанцияси чорвачилик комплексининг радио-ешиттириш қурилмаларини, ем-хашак тайёрлаш, сақлаш, сутни дастлаб ишловдан ўтказиш, молхоналарни гунгдан тозалаш ва молларни парвартиш қилиш ва ҳоказоларни электрлаштириш ва механизациялаштириш жараёнларини амалга оширди[13].

Соҳани ривожлантириш борасида ўтказилган халқаро конференциялар ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлди. Жумладан, шу ва бошқа масалалар Тошкентда бўлиб ўтган Ўзбекистоннинг шамол-энергетик салоҳиятига бағишланган иккинчи миллий конференцияда муҳокама қилинди. Аввалги ўтказилган биринчи миллий анжуманда Ўзбекистонда мавжуд бўлган шамол энергияси Атласи тақдим этилган эди. Ушбу харита махсус моделлаштирувчи компьютер дастурлари ёрдамида ишлаб чиқилди. Дастлабки консерватив таҳлилларнинг кўрсатишича, мамлакатдаги шамол энергияси имкониятлари 520 минг МВт ўрнатилиши мумкин бўлган қувват ва бир миллиарддан ошқ мегаватт-соат ишлаб чиқарилиши мумкин бўлган энергияни ташкил этади. Шамол атласига асосланган ҳолда «Ўзбекенерго» АЖ томонидан иккита истиқболли ҳудуд аниқланган – булардан бири Навойи вилоятида ва иккинчиси Қорақалпоғистон Республикасида. Ҳар икки ҳудудда ҳам узоқ муддатли сифатли шамол шартлари мавжуд бўлиб (Нукусда 60 минг МВт ва Зарафшонда 75 минг МВт), улар қулай жойлашгандир. Ҳар бир ҳудудда олиб борилган ўлчашлар натижалари қуйидагиларни кўрсатди: Нукус ҳудудида йиллик ишлаб чиқариш ҳажми 326 миллион кВт·с Зарафшон ҳудудида – 358 миллион кВт·с. Ҳар икки ҳудудда ҳам қўшимча ўлчаш натижаларига асосланган ҳолда лойиҳани кенгайтириш учун улкан имкониятлар бор[5].

Шу сабабдан ҳам конференция иштирокчиларининг диққат марказида бир қатор долзарб масалалар,

шунингдек 12 ой мобайнида Қорақалпоғистон Республикаси жануби ҳамда Навойи вилояти, Зарафшон шаҳри яқиндаги аниқ шамол параметрларини ўлчаш масалаларига қаратилди. Хусусан, “Гео-Нет” компанияси лойиҳа менежери Ёханес Бекер ўз тақдиротида шамол потенциали ҳақида маълумот бериб, мамлакатимизнинг шамол харитасини тақдим этган эди.

Бу борадаги тадбирлар республиканинг турли ҳудудларида самарали давом эттирилди. Жумладан, 2015 йилда Навойи вилояти Қизилтепа туманининг чўл ҳудудидаги бўрдоқчилик фермасида объектни электр энергияси билан таъминловчи ва қудуқдан сув тортиб берувчи қурилма ўрнатилиб, ишга туширилди. Натажада, бу тадбирлар одамларнинг ичимлик суви ва электр энергиясига бўлган талабини қондиришдан ташқари, саҳро бағрида дарахтлар, турли ўсимликлар экиб, кишининг баҳри дилини очадиган боғ барпо этишда ҳам бу қурилманинг аҳамияти бекиёс бўлди.

Мамлакат 2016 йилда қуввати 100 МВтга тенг шамол энергияси қурилмалари паркини қуриш ишларини бошлашни режалаштирди. Ўзбекистон Фанлар академияси энергетика ва автоматика институтининг ҳисоб-китобига кўра, лойиҳанинг ишга тушиши табиий газнинг 68 миллион куб метрини иқтисод қилишга ёрдам беради. Шунингдек, энергетика ва автоматика институти директорининг маълум қилишича, Германиянинг “ГЕО-NET GEO-NET Umweltconsulting GmbH” компанияси 2015 йил якунига қадар Ўзбекистондаги олти минтақада мамлакатнинг шамол энергияси салоҳиятини баҳолайди. Бу борада “Ўзбекенерго” Давлат акциядорлик компанияси ҳам кенг миқёсдаги тадбирларни амалга ошириб борди. Жумладан, мазкур компания германиялик хорижий шериклар билан ҳамкорликда 2020 йилгача олтига шамол электр станцияларини ишга туширишни режалаштирди[7].

Хулоса ва таклифлар. Бу борада Самарқанд вилоятида ҳам бир талай тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, Самарқанд давлат университети олимлари амалга оширилган ишлар диққатга сазовордир. 2015 йилда вилоят олимлари ушбу соҳани ривожлантиришга туртки берадиган тадбирни амалга оширдилар. Самарқанд давлат университети табиий фанлар факултети дотсенти Арзимурод Раҳматуллаев ўз шогирдлари билан вилоятдаги шамол йўналишлари бўйича изланишларининг илк хулосаларини олишди. Натижалар эса қутилганидан ҳам яхши – улкан ҳудудни эгаллаган Қарнаб чўлининг деярли ҳамма қисмида йил давомида эсадиган шамол ресурслари аниқланди. Бундан ташқари, Каттакўрғон сув омбори ва Самарқанд шаҳридаги Чўпонота ҳудуди, Булунгур, Қўшработ ва Паярик туманларида ҳам катта потенциалга эга шамол йўналишлари мавжуд. Аслида вилоятимизнинг 70 фоиз ҳудуди уч метр секунд тезликдаги шамол йўналишларига эга. Юқоридаги айтганларимиз эса 3,5 – 4 метр секунд тезликдан ортиқ шамол йўллари дир.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда муқобил энергетика тизимини ривожлантириш бўйича кенг миқёсда ишлар амалга оширилди. Бу борада Республика ҳукумати томонидан қабул қилинган шу соҳага тегишли норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг ҳаётга тадбиқ этилиши муҳим аҳамиятга эга бўлди. Хусусан, ушбу ҳужжатлар асосида муқобил энергетика тизимини ривожлантириш бўйича янги лойиҳаларнинг амалга оширилиши бошланди. Бу эса ўз навбатида мамлакатнинг энергетика тизими мустақиллигини таъминлаш ишларида муҳим аҳамиятга эга бўлди.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдиев И. Бетимсол энергия манбаи “Хуррият” газетаси 2011 йил 5 апрел.
2. Халқ сўзи”, 2009 йил 1 октябрь.

3. Халқ сўзи газетаси 2013 йил 1- март.
4. Халқ сўзи газетаси 2014 йил 1- март.
5. “Ўзбекэнерго” АЖ матбуот маркази/ Ўзбекистонда шамол энергияси салоҳияти ривожлантирилади. 2016 йил 11 июн
6. Табиат инъом этган неъмат № 25/2016 <http://www.adolatgzt.uz/>
7. Ўзбекистон 2016 йилда шамол энергияси қурилмалари парки қурилишини бошлайди <https://daryo.uz/>
8. Қосимова Н. Муқобил энергия зарурий эҳтиёжми? <http://ekolog.uz/article>
9. <http://ekolog.uz/article>
10. <http://www.uzbekenergo>
11. Lex.uz
12. ziyouz.uz
13. ziyonet.uz



UDK:05/07(584,4)19bb

Zuhra KIMSANBOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:kimsanboyezuhra@mail.ru

Professor, t.f.d R.SH.Shamsutdinov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE PRESS IN THE CULTURAL LIFE OF THE CITY OF TASHKENT IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY – THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract

This article provides information about the formation of the periodical press in the city of Tashkent in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, and the role of the population in the cultural life. In the 90s of the 19th century in Turkestan, unique renewal processes were observed in the field of press. From this period, the first private newspapers in the Russian language were active in the country. Czarism was not interested in raising the level of consciousness and knowledge of local peoples. Therefore, the ruling policy was opposed to the organization of periodicals in the national language, tools that would serve the rise of national consciousness.

Key words: Press, magazine, newspaper, "Taraqiy", "Asiyo", "Khurshid", "Shukhrat", "Turkestan Vedomosti", "Telegrams and announcements in Tashkent", "Life of Central Asia", "Okraina", "Tujjor", "Turk eli", "Turkish word", "Sho'rai Islam", "Great Turkestan", "Najat", "Kengash", "Turon", "Kengash".

РОЛЬ ПЕЧАТИ В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ГОРОДА ТАШКЕНТА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье представлены сведения о становлении периодической печати в городе Ташкенте во второй половине 19 века и начале 20 века, роли населения в культурной жизни. В 90-х годах 19 века в Туркестане наблюдались уникальные процессы обновления в области печати. С этого периода в стране стали действовать первые частные газеты на русском языке. Царизм не был заинтересован в повышении уровня сознания и знаний местных народов. Поэтому правящая политика выступала против организации периодических изданий на национальном языке, инструментов, которые служили бы подъему национального самосознания.

Ключевые слова: Пресса, журнал, газета, "Тараки", "Азия", "Хуршид", "Шухрат", "Туркестанские ведомости", "Телеграммы и объявления в Ташкенте", "Жизнь Средней Азии", "Окраина", "Туджор", "Тюрк эли", "Турецкое слово", "Шурай Ислам", "Великий Туркестан", "Наджат", "Кенгаш", "Турон", "Кенгаш".

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI- XX ASRNING BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRINING MADANIY HAYOTIDA MATBUOTNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola Toshkent shahrining XIX asr ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Turkiston aholisining Chor Rossiyasi hukmronligi davrida o'lkadagi davriy matbuotning shakllanishi, aholi madaniy hayotda tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. XIX asrning 90 yillarida Turkistonda matbuot sohasida o'ziga xos yangilanish jarayonlari kuzatilgan. Shu davrdan e'tiboran o'lkada rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar o'z faoliyatini olib boradi. Chorizm mahalliy xalqlar ongi va bilim saviyasining yuksalishidan manfaatdor bo'lmagan. Shuning uchun hukmron siyosat milliy ongning yuksalishiga xizmat qiladigan vositalarning, milliy tildagi davriy nashrlarni tashkil etilishiga qarshilik qilingan.

Kalit so'zlar: Matbuot, jurnal, gazeta, "Taraqiy", "Osiyo", "Xurshid", "Shuhrat", "Turkistanskiy vedomosti", "Telegramma va e'lonlarning Toshkent varaqasi", "O'rta Osiyo hayoti", "Okraina", "Tujjor", "Turk eli", "Turk so'zi", "Sho'roi islom", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Kengash", "Turon", "Kengash".

Kirish. Mustabid sovet davrida O'zbekistonda yuz bergan murakkab, ziddiyatli voqealar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayot haqiqatda qanday kechgan bo'lsa, shundayligicha o'rganilishi kerak. Bu davrni xalqimiz hayotidan o'chirib tashlab bo'lmaydi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bu yillar tarixi - bu bizning tariximiz, xalq tarixidir. Tarixdan voz kechib bo'lmaydi"[1].

Ma'lumki, Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirib, bu hududda o'zga davlat hukmdorlarining zo'rlikka asoslangan boshqaruv tizimi va siyosati yurgiza boshlaganidan e'tiboran uning mazlum va jabrdiyda xalqlar o'z erki, ozodligidan mahrum etilib, bironlar qo'l ostida tobe bo'lib qoldilar. Turkistonning so'nggi general-gubernatori A. Kurapatkin aytganidek: "Biz 50 yil tub joy aholini taraqqiyotdan jilovladik, uni maktablar va rus hayotidan chetda tutdik" deb e'tirof etgan. Biroq shu narsa haqiqatki, bu o'lkaning tabiatiga mag'rur xalqlari hech qachon o'zlarining chor-nochor qismatiga tan berib, o'zgalari jiloviga

bo'ysunib yashashga rozi bo'lmaganlar, aksincha, o'z erki, milliy mustaqilligi yo'lida mardonavar kurashganlar[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston o'lkasida tashkil etilgan davriy matbuot Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilgan. "Turkistan vedomosti" gazetasi 1870-yildan boshlab chiqib, Turkiston general-gubernatorligining birinchi rasmiy organi hosoblangan[3].

XIX-XX asrlarda Toshkent shahrida o'lkaning iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirishda matbuotga bo'lgan talab oshib borgan. Toshkentning "yangi shahar" qismida 25 nomdagi gazeta va jurnallar chiqqan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ozodlik uchun kurash olib borgan milliy ziyolilar bir nechta gazetalarini nashr qilib borishgan. Ular tomonidan 1906 yil "Taraqiy", "Xurshid", 1907-1908 yillarda "Shuhrat", "Tujjor" gazetalarida mahalliy aholining madaniy hayoti uchun muhim hisoblangan. Bu gazetalar toshkentliklarning ijtimoiy va siyosiy ongini shakllantirishning muhim omil bo'lgan deyish asoslidir.

Ularning sa'y- harakati bilan Turkistonning bir qator yirik shaharlarida gazeta va jurnallar nashr etila boshladi. Jumadan, toshkentda "Turk eli", "Najot", "Kengash", "Ulug' Turkiston", "Turon" nomli vaqti matbuot nashlari chiqarilgan[4].

Ular orqali e'lon qilingan materiallarda kechayotgan davrning o'ziga xos xususiyatlari, o'tkir ijtimoiy-siyosiy masalalar, joylardagi ahvol, ommaning fikri-dilini to'lg'lantirgan muammolar va boshqa dolzarb hayotiy masalalar aks ettirdi.

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan davriy matbuot Rossiya imperiyasining mustamlakachilik imperiyasiga xizmat qilgan. Dastlabki "Turkestanskiye vedamosti" gazetasi 1870-yil tashkil etilib, u Turkiston general-gubernatorligining birinchi rasmiy organi hisoblangan[5]. Unda asosan markaziy hukumat va mahalliy ma'muriyat farmoyishlari, davriy hujjatlari e'lon qilib borilgan. Vaqt o'tishi bilan maqolalar o'zgarib, ular mintaqa va qisman Rossiya, xorijiy mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga bag'ishlandi. Tarix, arxeologiya, etnalogiya bo'yicha maqolalar bo'lgan (ma'rifatparvar A. Sattorxon maqolasi) ni ko'rib o'tish mumkin.

Gazetaning birinchi soni 1872-yil 28-aprel (10-may)da nashr etilib, 1917-yilgacha muntazam chiqib turgan. Demak, bu gazeta shu hududda yarim asr (50 yil) umr ko'rgan yagona gazeta bo'lgan ekan.

1916-yil 16-apreldan 1-avgutga qadar "Turkistanskiye vedamosti" gazetasini kechki sonlari chiqqan. Obunachilarning kamayishi sabab ular chop etilmagan. XIX asr oxiri – XX asr boshida Toshkent "yangi"qismida o'lkada iqtisodiy-madaniy hayotning rivojlanishi davriy matbuotga bo'lgan talabni oshirdi. Ammo hokimiyat bu ishda o'z faolligini oshirmagan, gazetalar asosan xususiy, shaxslar tomonidan chiqarilgan. Ular ham ko'p muammolarga uchraganligi bois gazetalar uzoq vaqt chiqmagan, bazilari bir son chiqib to'xtatilgan[6].

Ikkinchi rasmiy gazeta "Telegramma va e'lonlarning Toshkent varaqasi"deb nomlangan (1893 yil). Bu gazetada mahalliy voqealar yoritib borilgan. Bir muncha vaqtdan so'ng chiqmay qo'yan.1893-yil 1- fevralda (1-soni), 11 sentabrda (184-soni) S. Sh. Petuxov tahririyati ostida chiqqan. Shu o'rinda 1905-1906- yillarga kelib "Telegrammalar va e'lonlarning Toshkent varaqasi" nomi ostidagi gazeta qayta chiqa boshlaganligini aytib o'tish o'rinlidir.

1894 yilda "Okraina"gazetasi nashr qilingan, so'ng u ham to'xtab qolgan.

1906-yil 3-sentabrdan, 1908-yil 3-sentabrgacha "Toshkentkiy kurer" gazetasi chiqqan. U 1904-yilda nashr etilgan "Toshkent varaqasi" gazetasi asosida asosida vujudga kelgan. "O'rta Osiyo hayoti" gazetasining paydo bo'lishi o'lkada hayotida sezilarli hodisa bo'ldi, u 1905-yil 2-noyabrdan 1908-yil 13-martigacha faoliyat ko'rsatadi. Demak, gazeta uchun mablag' yetishmasligi uning to'xtatilishiga sabab bo'lgan. Yana bir yirik nashrlardan biri "Russkiy Turkestan"gazetasi, 1889-1907 chiqarilgan. Keyinchalik ma'muriyat tomonidan yopib qo'yilganligi aytib o'tilgan, uning o'rniga "Turkistan" gazetasi chiqarilgan. Chor hukumati taqibiga ko'ra bu gazeta 1906-yil 29-oktabrdan 3-dekabrgacha "Vpered" nomida chiqqan. Gazetada siyosiy, ijtimoiy masalarga oid maqolalar, adabiy munozara, she'rlar, sud ishlari bilan bog'liq hisobotlar, muharriyatga kelgan xatlar va ularga javoblar chiqarilgan. Jadidchilar faoliyati asosida shakllangan matbuoti

Demak, ushbu gazetaning o'rni Turkiston o'lkasi hayotini yoritishda muhim matbuot edi.

1906-yildagi 1-sonda "Vpered"gazetasi "Toshkent 1906 20-oktabri" degan maqolasida qattiq qatag'onlar sharoitida gazeta chiqarish qiyinligi haqida yozilgan va "yanada yorqinroq zamonlar" yetib kelishiga ishonch ifoda etilgan. Bu gazetaning 28 ta soni chiqqan, 1907-yilgi taqib sabab gazeta butunlay tugatilganligini aytib o'tish joiz.

Tadqiqot metodologiyasi. O'lkada harbiy qismlari tomonidan ham gazetalar chiqarilgan. 1906-1915-yillar davomida "Turkiston harbiy gazetasi faoliyat" ko'rsatgan. Unda soldatlarning sadoqati, axloqi, xizmat burchi, intizom masalalari yoritib borilgan. Shunday qilib, gazeta armiyani mustamlaka hokimiyatiga sadoqatini mustahkamlashga, u yerga revolyutsion g'oyalarni kirib borishiga to'sqinlik qilishga xizmat qilgan [7].

Sanoat, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun iste'fodagi gvardiya kapitani L. B. Gentillo 1907-yil hokimiyatdan "Turkiston savdo- sanoat gazetasi"ni chiqarishga ruxsat oldi. Unda sanoat, savdo munosabatlari, o'lkada siyosiy, ijtimoiy hayotiga oid masalalari bo'yicha maqola va axborotlar chiqarilgan. Rossiya va xorijiy mamlakatlar va mahalliy voqealar, sud ishlari haqidagi ma'lumotlar, felyetonlar, telegrammalar, e'lonlar o'rin olgan. 1908-yil 3-yanvardan 30-yanvargacha mavjud bo'lgan.

1908-yilning 22-avgustdan 4-sentabrgacha "Turkiston hayoti" gazetasining 4-soni chiqqan. Keyinchalik, "Tashkentkiy golos" (1904-1910), "Tashkenskoe utro"(1909-1910), "Turkestan"(1912-1917 yillar), "Turkestanskiy kurer"(har kuni)-4000, "Qoraqurt" (haftada ikki marta)-5000. Yuqoridagi ma'lumotlar asoslanib, eng ko'p "Turkestanskiy kurer" va "Qoraqurt" gazetalar chiqqani ma'lum bo'ladi.

Shaharning "yangi" qismida Rossiyaning markaziy hududlarida chop etilgan vaqti matbuotlar kelib turgan. 1884-yilgi ma'lumotga asoslanib, shaharda 2000 nusxadagi 200 ta shunday nashrga obuna ma'lum bo'lgan, shunda har bir 8 ta aholiga 1 nusxa to'g'ri kelgan. Peterburgdan Toshkentga 1600 nusxada 100 nomdagi gazeta va jurnallar kelib turgan. 1890-yilda ular soni 186 taga ko'paygan. Ular 2571 nusxani tashkil etgan, keyinchalik Markaziy Rossiyadan keladigan matbuot soni ortib boradi.

Toshkentning "yangi" qismida matbuot rivojlanib borsada, "eski" shahar aholisi uchun umuman mahalliy tildagi gazeta va jurnallar chop etilmagan. Rossiyadan keltirilgan va Toshkentda chiqayotgan matbuot asosan shaharning "yangi" qismi manfaatlariga xizmat qilardi. Faqat 1870 yilda Toshkentning "yangi" shahar qismida "Turkestanskiye vedamosti" gazetasiga ilova tarzida "Turkiston viloyati gazetasi" o'zbek tilida chop qilingan. 1883-yildan gazeta har haftada o'zbek tilida chiqib turgan. Ushbu gazetada hukumat va ma'muriyat farmoyishlari, sanoat va dehqonchilik, tarix, geografiya materiallari chiqarib borilgan[8].

Tahlil va natija. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ozodlik uchun kurash olib borgan milliy ziyolilar bir nechta gazetalarini nashr qilib borishgan. Ular tomonidan 1906 yil "Taraqiy", "Xurshid", 1907-1908-yillarda "Shuhrat", "Tuj-jor" gazetalarida mahalliy aholining madaniy hayoti uchun muhim hisoblangan. Bu gazetalar toshkentliklarning ijtimoiy va siyosiy ongini shakllantirishning muhim omil bo'lgan deyish asoslidir[9].

Toshkent

1	1906 yil 14 (27) iyun	"Taraqiy" gazetasi-muxarriri Ismoil Obiliy. "Taraqiy" tom ma'nodagi ilk milliy nashr hisoblanadi, 19 ta soni chiqqandan keyin "Taraqiy" yopilgan. Muxarrir qamoqqa olinib, nashriyotning mol-mulki musodara qilingan. "Taraqiy"ning ilk soni chiqqan kun 27 iyun 1993 yildan buyon mamlakatimizda "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" sifatida nishonlanadi.
2	1906 yil	"Xurshid" ("Quyosh")-ilk o'zbek gazetalaridan biri.Muxarrir Munavvarqori

	7 sentabr	Abdurashidxonov. Haftada bir marta nashr etilgan.
3	1907 yil 1 dekabr	“Shuhrat” gazetasi. Haftada ikki marta chiqqan, gazetaning rasmiy muxarriri Abdulla Avloniy deyilsa-da, ammo amalda Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan.
4	1908 yil 9 aprel	“Osiyo” gazetasi – muxarriri Ahmadjon Bektemirov. Jami 5ta soni chiqqan, mustamlakachi ma'murlar tomonidan yopilgan.
5	1914 yil 4 aprel-1915 yil 10 aprel	“Sadoi Turkiston” (“Turkiston gazetasi”)- gazetasi muxarriri Asadullaxo`jayev Ubaydullaxo`ja.
6	1915-1918 yillar	“Al-isloh”- Turkistonlik jadidlar va so`l ulamochilar jurnali. Muxarrir Abduraxmon Sodiq o`g`li (Sayyox). Islom dinini isloh qilishga urinishgan, 5 ta soni chiqqach faoliyati to`xtatilgan.
7	1917 yil fevral	“Najot” gazetasi- muxarriri Munavvarqori Abdurashidxonov, 20ta soni chiqqan[10].
8	1917 yil iyun-sentabr	“Kengash” gazetasi. Turkiston musulmonlari Markaziy sho`rosining nashri. “Najot” gazetasining (1917 yil mart-iyun) o`rniga chop etilgan. Gazeta dastlabki tarixchi olim Ahmad Zakiy Validiy, keyinchalik Munavvarqori Abdurashidxonov muxarrirlik qildi. “Kengash” Turkiston muxtoriyati g`oyasini keng targ`ib qilgan, 16 ta soni chiqqan. 1917 yili oktabrda “Turon” gazetasi bilan birlashib, “Turk eli” nomi bilan nashr etilgan.
9	1917 yil	“Turon” gazetasi- muxarriri A.Avloniy va M.Afandizoda. Haftasiga uch marta chop etilgan, 1917 yilning iyulida nashr ishlari to`xtatilgan bo`lsa-da, yana bir necha muddatda nashr etilgan.
10	1917 yil 25 aprel	“Ulug` Turkiston” gazetasi - muharrirlari Sodiq Abdusattorov, Kabir Bakirov, P.Domogatskiy. Gazeta dastlab (41 sonida qadar) “Turkestanskiye vedamosti” matbasida, keyinchalik “Umid” matbasida chop etilgan (jami 155 soni chiqqan), 137-sonidan boshlab gazetaning oxirgi sahifasi kirill amlosi (ruscha)da berilgan.
11	1917 yil 16 may	“Sho`roi islom” gazetasi. “Sho`roi islomiya” jamiyatining nashri. Haftada ikki-uch marta nashr etilgan. Muxarriri A.Battol. Gazeta 1917 yil iyunda moddiy muammo sababli to`xtatilgan.
12	1917 yil sentabr	“Turk eli” gazetasi. “Turkiston Musulmon Markaziyat sho`rosi” va “Turk Adam Markaziyat firqasi”ning nashr organi sifatida chiqqan. Siyosiy tuzum o`zgarishi bilan gazeta faoliyati to`xtadi.
13.	1918 uil may	“Turk so`zi” gazetasi – muharriri Temurbek Xudoyorxonov. Toshkent shahrining Shayxontoxur daxasida Saidalixo`ja Eshonxo`ja o`g`li bolaxonasida chop etilgan. Haftada ikki marta chiqqan. Gazeta “Birlashgan turk o`rtoqligi” jamiyatining nashri hisoblangan[11].
14	1907 yil	“Tujjor” gazetasi – 1907 yilda toshkentlik Saidkarim Saidzimboy tijoratchilarning maxsus “Tujjor” gazetasiga asos soldi. Bir yildan so`ng rus tilida shunday gazeta (“Turkestanskaya torgovo-promishlennaya gazeta”) chiqarildi.

Xulosa va takliflar. “O‘z tarixini bilmagan kechagi kunini unutkan millatning kelajagi yo‘q”[12].

Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan. chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘lka aholisi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligini XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Toshkent shahrida faoliyat olib brogan vaqtli matbuotlarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Vaqtli matbuot va madaniy-ma‘rifiy muassasalarining tiklanishi Toshkent shahrining siyosiy va madaniy hayotning jonlanishiga xizmat qildi. Metropolianing mustamlakachilik siyosati bu jarayonga to‘sqinlik qilgan. Toshkentning “yangi” qismida vaqtli matbuotning nashr qilinishi madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyati alohida shaxslarning taraqqiyparvar kashfiyot ishi bo‘lib qolaverdi, ularning ko‘p talablari hukumat tomonidan qo‘llab quvvatlanmagan, bunday jarayon keng xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga kirib kelishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Maorif-madaniy dargohlari, ijodiy uyushmalar, teatr, nashriyotlar faoliyati o‘z navbatida sotsializm va kommunizm to‘g‘risidagi xayoliy jamiyat uchun zararli ta‘limot va g‘oyalarni tarannum erish, odamlar ongiga singdirishga xizmat qilgan.

Jadidlarning muhim islohotlaridan biri shuki, milliy matbuot va jurnalistikaga asos solinganligi bo‘ldi. Turkiston

jadidlari rus demokratik va inqilobiy harakatning yutuqlaridan ham samarali foydalandi. Imperator Nikolay II inqilobiy-demokratik harakat bosimi ostida 1905-yil 17-oktabrda maxsus menifestga imzo chekib, demokratiya, matbuot, va so‘z, har qanday yig‘ilish o‘tkazish erkinligini berishga majbur bo‘ldi. Buni jadidlar quvonch bilan kutib oldilar. Shundan so‘ng jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar bo‘lgan gazeta va jurnallarni tashkil etishdilar.

Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda 1917-yil apreldan chiqqan boshlagan “Turon” gazetasining ilk sonida “Yashasin xalq jumhuriyati” shiori ilgari surilgan. Unda aniq maqsad: “Musulmonlar orasida ko‘p yillardan beri davom ergan umunga zo‘rlilik, bid‘at odatlarni bitirmak, kelajakda bo‘ladirg‘on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq” g‘oyasi ilgari surilgan. Munavvarqorining o‘sha yili “Najot” gazetasining 26-mart sonida bosilgan: “Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila ilib bo‘lmas, faqat qon va qurbon ilagina olib bo‘lur degan” xitobi ham jadidlarning xalq ozodligi yo‘lida jiddiy kurashdan dalolat berardi.

1917-yili 14-martda Toshkentda jadid arboblari tashabbusi bilan “Sho‘royi Islomiya” tashkiloti tuzilgan. Tarkibi 15 kishidan iborat bo‘lib, yertakchisi Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Bu tashkilot ta‘sirida Toshkentda “Turon”, “Ittihodi taraqqiy” tashkilotlari paydo bo‘lgan.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. -T.: O‘zbekiston, 1996. 9b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
3. Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Y.: 1999. 18b.

4. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakat tarixidan. – T.: O'qituvchi, 2002. 131b.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – T.: Ma'naviyat, 2002. 37b.
6. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar” qismi tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2004. 110-111b.
7. Shamsutdinov, R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. Andijon-2011. 316b.
8. Abduazizova N. A. Turkistonda matbuot tarixi (1870-1917). T.: 2000.32b.
9. “Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'at rivojlanishiga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (15 aprel 2016 yil.Toshkent).Toshkent: Islom Universiteti,2016. 114b.
10. Ziyoy Said (Soli Qosimov) ning “O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga oid materiallar(1870-1927)” Tanlangan asarlar. T.: 1974. 25-34b



Наврўзбек РАХИМОВ,
ТДУТАУ доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори
E-mail: raximov.n_1990@list.ru

тарих фанлари доктори, профессор Н.А.Мустафаева тақризи асосида

ХОРАЗМ ХАЛҚ ШҲРОЛАР ЖУМҲУРИЯТИНИНГ МАЪМУРИЙ ТУЗИЛИШИ ВА ШАҲАРСОЗЛИГИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

Аннотация

Ўзбек халқи тарихида, шу жумладан, Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий давлатчилик тарихида Хоразм воҳаси ўзига хос ўрин тутади. Мақолада ХХ асрнинг илк чораги ташкил этилиб советлаштириш сиёсати натижасида тугатилган Хоразм Халқ Шўролар Жумҳуриятининг шаҳарсозлиги, маъмурий тазилишидаги бир қатор ўзгаришлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ХХШЖ, Шаҳарсозлик, маъмурий тазилиш, Ичан-қалъа-шаҳристон, туман, “махалла-мавзе элот”, “қитъа”, “жариб”.

ПО ВОПРОСАМ АДМИНИСТРАТИВНОГО СТРОЕНИЯ И ГОРОДСКОГО ХОЗЯЙСТВА ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация

Хорезмский оазис занимает особое место в истории узбекского народа, в том числе и в истории древней государственности на территории Узбекистана. В статье анализируется ряд изменений в градостроительной и административной структуре Хорезмской Народной Советской Республики, сложившейся в первой четверти ХХ века и завершившейся в результате политики советизации.

Ключевые слова: ХНСР, Градостроительство, административное планирование, Ичан-кала – шахристан, район, “махалла-мавзе элот”, “қитъа”, “джариб”.

ON ISSUES OF ADMINISTRATIVE STRUCTURE AND URBAN ECONOMY OF THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC

Annotation

The Khorezm oasis occupies a special place in the history of the Uzbek people, including in the history of ancient statehood on the territory of Uzbekistan. The article analyzes a number of changes in the urban planning and administrative structure of the Khorezm People's Soviet Republic, which took shape in the first quarter of the 20th century and ended as a result of the Sovietization policy.

Key words: KhPSR, Urban planning, administrative planning, Ichan-kala - shakhristan, district, “mahalla-mavze elot”, “kita”, “jarib”.

Кириш. Ўзбек халқи тарихида, шу жумладан, Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий давлатчилик тарихида Хоразм воҳаси ўзига хос ўрин тутади. Суғорма деҳқончилик, шаҳарсозлик, давлатчилик, меъморчилик, ҳунармандчилик, санъат, маънавий-мафқуравий ҳаёт ва бошқа соҳаларда дунё цивилизациясига кўшган ўзига хос ҳиссаи билан милоддан олдинги I минг йилликнинг бошларидан то ХХ асргача кўплаб тарихий воқелиқларга гувоҳ бўлиб келган ушбу воҳа тарихини ҳар томонлама чуқур ўрганиш бугунги куннинг муҳим масалалардан биридир.

ХХ асрнинг илк чораги дунёнинг кўплаб ҳудудларида шаҳарсозлик, модернизатсия жараёнлари жадал ривожланди. Бу даврда Марказий Осиё минтақасида миллий озодлик курашларининг кучайиши, маърифат-парварлик ҳаракатларининг юзага келиши, йирик империяларнинг мустамлақасига айланган турли халқларнинг ўз миллий давлатини қайтадан тиклашга интилиши жараёнлари кечди. Бу жараёнлар Туркистон ўлкасида ўзгача шаклларда кечди ва пировард натижада бугунги Ўзбекистон Жумҳуриятининг ташкил топишига замин яратилди. Ўз миллий давлатчилигини тиклаш мақсадида амалга оширилган ишлардан бири – 1920 йилда Хоразм Халқ Шўролар Жумҳуриятининг ташкил топиши бўлди ва унинг қарийб беш йиллик фаолияти ватанимиз тарихида чуқур из қолдирди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Қарийб беш йил мобайнида Хоразм Халқ Шўролар Жумҳурияти-

нинг маъмурий тазилиши, шаҳарсозлигида бир қатор ўзгаришлар амалга оширилди. Бу ўзгаришларнинг ҳуқуқий асоси сифатида 1920 йил 30 апрелда қабул қилинган ХХШЖнинг биринчи Конституциясида маъмурий тазилишига доир алоҳида бўлим ва моддалар ажратилган.

ХХШЖ ўз конституциясига кўра мустақил давлат сифатида иш олиб бориб, ўзининг маъмурий бирликларини белгилаб олади. Бунга кўра ХХШЖ 22 та туманга бўлинган эди: Дарғонота, Питнак, Ҳазорасп, Бешарик, Хонқа, Янги Урганч, Гурлан, Қипчоқ, Манғит, Қиличбой, Моноқ, Тошқовуз, Пўрси, Хужайли, Кўҳна Урганч, Кўнғирот, Хива, Илонли, Ғазовот, Шовот, Хитой, Қўшқўпир.

ХХ аср Хоразм тарихига доир мафқуравий ёндашувдан ҳоли бир қанча тадқиқотларда ХХШЖнинг маъмурий тазилиши малаласига эътибор қаратилган. Чунки асрлар давомида мавжуд бўлган бошқарув тартиблари билан бир қаторда маъмурий тазилишда шу пайтгача мавжуд бўлган хон хонадони вакиллари ва юқори мартабали амалдорлар бошчилик қиладиган вилоят, ноиблик ўрнида этник жиҳатларга асосланган ҳолда туманларга ажратилди. Чунки совет маъмурлари ХХШЖнинг маъмурий бўлинишида ҳам “Нифоқ сол, ҳуқумронлик қил” тамолига содиқ қолди. Улар асрлар давомида қон-қариндошлик ришталари билан боғланган ўзбек, туркман, қозоқ, қорақолпоқ халқлари ўртасида

бирдамлик ва ҳамжиҳатликни йўқ қилган йўлини туздилар.

М.Матқаримовнинг “Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди” асарида ушбу ёндашувга ургуберилади: “1920 йил апрель ва май ойининг бошларида ушбу туманларнинг туман кенгашлари (советлари) тузилиб, уларнинг ҳар бирида 5-7 кишидан иборат кенгаш аъзолари сайланди. 14 та ўзбеклар яшайдиган, 5 та туркманлар яшайдиган ва 3 та қозоқлар яшайдиган туманларда кенгашлар сайланиб, ҳар бир туман маҳаллаларида оқсоқоллар сайланди”[1].

1923 йил 20 октябрда бўлиб ўтган Бутун Хоразм халқ вакилларининг IV курултойи ХХСРни Хоразм Совет Социалистик Республикаси (ХССР)га айлантириш тўғрисида қарор қабул қилинди[2]. Ушбу қарор 20 октябрда қабул қилинган 5 та бўлим 12 та бобдан иборат Конституция билан мустаҳкамланди. ХХХШЖнинг маъмурий тузилиши масаласига ҳам алоҳида тўхталилган.

ХХХШЖнинг курултойларида марказ тасирида бу каби маҳаллий бошқарув органларига бир неча бор ўзгартиришлар киритилиб турганлиги доир Н.Жўраев ва Ш.Каримовларнинг тадқиқотлари фикримизни исботлайди. “Бутун Хоразм IV Шўролар курултойи қарорлари асосида ўлкада 4 вилоят ва 8 та туман ижроия кўмиталари ташкил этилиб, улар Ҳазорасп вилояти, Янги Урганч вилояти, Тошхўвўз вилояти, Хўжайли вилояти бўлиб, марказ Хива алоҳида туман сифатида қолдирилди. 1924 йил май ойида ХХХШЖда Янги Урганч вилоятида ўзбеклар кўпчиликни ташкил этиши сабабли туманлар бирлаштирилиб (Хива туманидан ташқари) вилоятлар 4 тадан 3 тага қисқартирилди. Кам сонли кичик миллатларнинг манфаатларини эътиборга олган ҳолда Хоразм МИҚ қошида миллий бўлимлар: 9 кишидан иборат – Туркман бўлими; 5 кишидан иборат – Қозоқ бўлими ва 3 кишидан иборат – Қорақалпоқ бўлими ташкил этилди[3. Б. 199].

ХХХШда шаҳарсозлик, асосан, маъмурий марказ Хива шаҳрида бўлган. Хива шаҳри кўп асрлик тарихи давомида у қайта-қайта таназзулга учраши ва қайта юксалиши шаҳарнинг тузилишида ўзгаришларни бўлишига сабаб бўлган. Шаҳарнинг XIX асрдаги кўриниши бугунги кунгача сақланиб қолган.

Хива шаҳрининг тарихий топографиясида аниқ белгиланган қисмлардан иборат бўлган. Қалъа атрофида шаҳар қуришнинг анъанавий тамойили акс эттирилган: арк (қалъа) - Шаҳристон (шаҳар тўғри) - рабод (шаҳар атрофи). Ичп-қалъа (Шаҳристон) кучли қалъа деворлари билан ўралган бўлиб, унинг атрофида шаҳар атрофи-Дишанкала (ташқи шаҳар) маҳаллалари жойлашган, ўз навбатида, қалъа деворлари билан ҳам ўралган[4. С. 13].

Хива шаҳрининг XX асрда биринчи чорагидаги тузилиши ва қиёфасини Матқарим Неъматуллаев томонидан 1920 йилда тузилган харитадан олиш мумкин.* Бу харита шуниси билан диққатга сазоворки унда нафақат мавжуд бўлган иморатлар шунингдек аҳоли сони, ер майдонлари, масжид ва мадрасалар харитада аниқ ўз ифодасини топган. Режада шу даврнинг 14 та дарвозаси (Ичан ва Дишан қалъадаги) номлари билан, 43 та мадрасаси, 79 та масжид мадраса ва масжидларнинг вақфлари ҳам қайд этилган кўчаларнинг жойлашуви, маъмурий бинолар, бозор ва карвонсаройлар ва бошқа бинолар тасвирга олинган. М.Неъматуллаев маълумотида кўра 1920-йилда Хива шаҳрида 4949 оилада 27083 та киши, жумладан Ичан қалъада 909 та оила ва унда 13767 та киши, Дишан қалъада 4040 та оила ва 13316 киши истиқомат қилган. Шаҳарнинг майдони тахминан 468 танобни ташкил этган ва бир таноб 60 газга, 1 газ эса 0,5 аршинга тенг ҳисобланган[5].

* Ушбу харита ҳозирги кунда Ичан қалъа музей қўриқхоаси фондида ва негативлари Ўзбекистон Республикаси маданият ва спорт Вазирлиги қошидаги

ёдгорликларни муҳофаза қилиш Бош Бошқармаси архивида сақланмоқда.

Тадқиқот методологияси. Олиб борилган илмий тадқиқот натижалари шуни кўрсатяптики XIX аср охири-XX аср бошларида Ўзбекистоннинг аксари шаҳарларда асосан икки погонали бошқарув бўлган. Бу шаҳарларнинг маъмурий-режавий бўлинувида ўз аксини топган. Бўлинмалар йирик ва майда шаҳарсозлик бўлинмалари шаклида вужудга келган. Йирик ва майда бўлинмалар турли иборалар билан юритилган. Қўқон, Марғилон, Тошкент каби шаҳарларда тўрттадан йирик бўлинмалар бўлиб, улар «даҳа» ибораси билан аталган. Самарқандда ҳам бундай йирик бўлинмалар тўртта бўлиб «китъа» ибораси билан аталган. Бухоро шаҳрида эса йирик шаҳарсозлик бўлинмаларидан ўн иккита бўлиб «жариб» ёки «маҳалла» дейилган. “Маҳалла” ибораси кўпроқ майда шаҳарсозлик бўлинмаларга нисбатан қилиб айтилган (Тошкент, Қўқон, Марғилон). Демак, «маҳалла» Бухорода йирик бўлинмаларни, бошқа шаҳарларда эса майда бўлинмаларни ифода этган. Бухоро, Самарқанд каби шаҳарларда кичик бўлинмалар «гузар» деб аталган.

Хоразм шаҳарларининг, хусусан Хиванинг бундай худудий-маъмурий бўлиниш тизими тўғрисидаги аниқлик йўқ эди. Маҳалла ва гузарга ўхшаш кичик бирикмалар мавжуд адабиётларда «элот» номи билан аталиб келинган[6. С 68].

Хива хонлари архивида аҳоли жойларининг рўйхати келтирилган бўлиб, унда «масжид» деб аталган жойлардан таркиб топган қишлоқлар тарихида берилган. “Масжид” ибораси кенг маънодаги «маҳалла» каби кичик шаҳарсозлик бириги маъносига қўлланилган. Ҳар бир хонадонларда ўртача 6 кишидан истиқомат қилган деб фарз қилсақ, Шайхлар қишлоғи масжидларининг тахминий аҳолиси 270 киши атрофида бўлиб чиқади. Бизнинг фикримизча бундай, Шайхлар каби қишлоқ жойларига “элот” иборасини ишлатиш ўринлидир. Хоразмда «масжид» сўзи нафақат диний муассаса биносини, балки аҳоли истиқомат қиладиган шаҳарсозлик тизимини ифода этилганлиги бошқа манъбада ҳам ўз тасдиғини топади. Жумладан, А.Абдурасулов тадқиқотида Хивада олдин аҳоли истиқомат қилган жойлари “масжидқавм” деб аталган (қўм – “қавм”- уюшма сўзининг қисқартмаси) [7. Б. 19].

Таҳлил ва натижалар. А.Абдурасулов Хивага бағишланган ўзининг монографиясида катта шаҳарсозлик бўлинмаларига нисбат қилиниши мумкин бўлган қимматли маълумот бор. У Хивада тўққизта: Амин чорсу, Кумёсқа, Каптархона, Ўр, Кўҳна бозор, Қалта минор, Мойвастон, Қора аълам, Янги қалъа “мавзе”лари бўлганлигини қайд этган[8]. Ундан ташқари “Таъмиршунослик” институти материалларида Ичан қалъа саккизта “кўча”га ажратилган[9]. Бизнинг тахмин қилишимизча саккизта кўча А.Абдурасулов келтирилган мавзеларга тўғри келади. “Мавзе” сўзи Хивага бағишланган зикр қилинган манбадан ташқари бошқа манбада учрамайди. Аммо “элот” сўзи махсус нашрларда ва ҳозирги вақтда оғзаки нутқда мустаҳкам ўрин олган. Мазмун жиҳатидан улар бир шаҳарсозлик бўлинмани ифода этишини назарда тутсақ уларни «мавзе-элот» лар деб аташ тўғрирок кўринади. Агар ҳозирги маҳаллалар билан мавзе-элотларни солиштирадиган бўлсак, ҳулосамизнинг бошқа асосларини ҳам топишимиз мумкин. Хиванинг Ичан қалъасида мавзе-элотлар ҳозирги маҳаллаларнинг иккитасида (Кумёсқа, Каптархон) ўз номини сақлаб қолган ва шу мавзеэлотлар жойлашувига тўғри келади. “Мавзеэлот”лар Дишан қалъада ҳам давом этган. Биргина мавзе-элот (Қора аълам) фақат Ичан қалъада жойлашган ва биргина мавзе-элот (Кумясқа) фақат Дишан қалъада жойлашган. қолганлари ҳам Ичан қалъада, ҳам Дишан қалъада жойлашганини кўришимиз мумкин.

Ш.Реймбаев “Хоразм шаҳарларининг XIX аср охири - XX аср бошларидаги архитектуравий - тархий тизими” номзодлик диссертациясида Хоразм шаҳарларининг худудий-маъмурий тизими шаҳарнинг маъмурий бўлинмалари орқали намоён бўлишини тахлил қилган. У XIX аср охири XX аср бошларида жамоаларни, кишлоқларни, аҳоли истиқомат қиладиган жойлар шаҳарсозликнинг кичик бўлинмалари бўлган масжидқавмлар орқали бошқарилганлиги, шу даврда қавм, жамоа ўттиз хонадонга етса, катта жамоа ҳисобланганлиги ва масжидқавмга бирлаштирилганлиги, қавмларнинг аксарияти ўнга яқин хонадонлардан иборат бўлганлиги ва қавмлар бир жамоага уюшган ҳолда ер, сувдан биргаликда фойдаланишган, жамоа томонидан сайланган йиғилиш-кенгаш орқали бошқарилганлиги ҳақида тўлиқ маълумотлар келтириб ўтган. А.Абдурасуловнинг олиб борган тадқиқотлари натижаси XX аср бошларида шаҳарда мавжуд бўлган жаъми (шу жараёнда шахсан иштирок этган Бобожон Сафаровнинг шахсий архивидан олинган) 79 та масжидқавмдан фақат 65 тасида аҳоли қолганини аниқлади. М. Неъматуллаев томонидан 1922-йилда чизилган шаҳар режасида ҳам 79 та масжидқавм номини қайд этилган ва уларнинг 65 тасида аҳоли, хонадон сони кўрсатилган. Масжидқавм номлари эса берилмаган. Шу даврда Хива шаҳрида 64 та масжидқавм мавжуд бўлган. Масжидқавмлар номлари А.Абдурасуловга кўра қуйидагича: Боборис бобо, Мискин бобо, Пояки, Ғасоллар, Абдулла раис, Боғбонли, Исмоил бекча, Тоҳир элон, Саид ота, Поянда, Отамурод кушбеги, Мусо тўра, Қози хос, Товғон турк, Саид, Маҳмуд ота, Ҳасанмурод Кушбеги, Уч авлиё, Бектемир, Ҳасан кури, Ғалғал, Пано заргар, Чилла авлиё, Отажон девон, Рофаник, Нурилло читкар, Нуриллабек, Хабибулло эшон, Мамат маҳрам, Хусайн заргар, Норбек, Абдулла сарроф, Шоқаландар бобо, Бобо карвонбоши, Ёқуб меҳтар, Нуриллабой, Ҳасан боғбон, Қалам ясовулбоши, Матқарим сайис, Султонобод, Жонкелди, Ибодулло эшон, Саид Муҳаммаджон, Нури Хўжа, Олак Эдакчи, Кулол Масжид (кулоллар), Каптархона, Бозор юзбоши, Ҳасан кули, Раҳмонберди

бий, Машарип ласси, Қумёсқа, Сайдомит (Саид Ҳамил тўра), Полвон қори, Обдол бобо, Саид Ниёз шоликор, Тўрт Шоббоз, Хон масжид, Давлат қорақўз, Ғаффорбой, Заргар масжид, Гадоилар, Қора аълам, Мадраимхон, Исмоил хўжа[10]. Ўша даврда шаҳар масжидқавмлари хонадонлар сони билан бирбиридан кескин фарқ қилган. Масалан: Ичан қалъадаги энг кичик Ғасоллар маҳалласидаги 23 та хонадонда 78 киши (ўртача ҳар хонада 3-4 киши) яшаган. Дишан қалъадаги энг катта Саид Ниёз Шоликор маҳалласида эса 184 та хонадонда 833 нафар киши (ўртача ҳар хонадонда 4-5 киши) яшаган. Масжидқавм номлари эса табиий равишда шу ерлик аҳолининг шуғулланадиган касб - хунаридан ёки масжидқавм масжидини қурдирган киши номидан келиб чиқиб аталаверилган.

П.П.Иванов “Хива хонлиги архиви” материалларида Хива атрофидаги 147 та кишлоқлар (турар жой пунктларини) рўйхатини келтирган. Уларнинг энг каттасида 10 та масжидқавм бўлиб, “Наухас” номи билан аталган, энг кичиги эса “Рофаник” номи билан аталиб, атиги бир одам яшаши таъкидланган.

Мавзеэлотлар тўғрисида архитектор, Хива архитектураси тарихи билан шуғулланган Ш.Реймбаев куйидагича изоҳ берган: “Бу йирик бўлинмалар ҳозирги кунгача манбаларнинг айрим жойларида “элот”, бошқа жойларида “мавзе” деб аталиб келинган. Бунга аниқлик киритиш учун бу мазкур йирик бўлинмаларни “мавзе-элот” деб атадик” [11. Б. 19]. Тарихчи олим А.Абдурасулов ҳам Хивада 9 та мавзе-элот (“мавзе”) бўлганлигини таъкидлайди. Булар: Қумёсқа, Каптархона, Ўр, Кўхна бозор, Калта минор, Амин чорсу, Мойвастон, Қора аълам ва Янги қалъа мавзе-элотлари [12. Б. 63].

Ш.Реймбаев ўзининг “Хоразм шаҳарларининг XIX аср охири - XX аср бошларидаги архитектуравий - тархий тизими” тадқиқотида А.Абдурасулов фикрларини тасдиқлайди. “Агар шаҳарда 80 та масжидқавм бўлган бўлса, бу мавзе-элотларнинг ҳар бири ўрта ҳисобда 9 та масжидқавмни ўз ичига олган. Булар худуди жиҳатдан ҳозирги маҳаллаларга тўғри келади” [13].



М.Неъматуллаев томонидан 1920-йилда тузилган харита топилгунгача бўлган Хива шаҳри билан боғлиқ тадқиқотларда кўчаларнинг эски номлари, мадраса ва масжидлар сони турли даврдаги тадқиқотда турлича кўрсатилиб келинди.

“Шуниси илмий жиҳатдан эътиборга сазоворки”, – деб ёзди А.Абдурасулов “Хива” деб номланган тарихий этнографик очерклар тўпланган китобида – “мазкур режа топилгунга қадар кўчаларнинг эски номлари, мадраса ва масжидлар сони турли даврдаги тадқиқотда турлича кўрсатилиб келинди. Чунончи, эълон қилинган рисола-ларда Хива шаҳрида 96 масжид, 120 мадраса бор деб келинди” [14]. XXШЖ ёш ҳукуматида марказнинг таъсири ва асосий урғуни ўлкани бирламчи хомашё базасига айлантириш сиёсати аҳолининг демографик ҳолати, шаҳарсозлик масалаларини 2 даражали масалаларга айланиб қолишига олиб келди.

Хулоса ва таклифлар. Бу давр Хоразмда шаҳарсозлик соҳасидаги эришилган ҳамма ютуқларга меъмор, архитектура тарихчиси И.И.Ноткин шундай деб баҳо беради “... XIX аср бошлари ва XX асрда Хива меъморларининг ғоялари ўзининг энг юқори чўққисига етиб, халқ меморчилиги тажрибаси билан узвий боғланган, аввалом бор орнаментал-декоратив санъатда ва фуқаро архитектураси намуналарида ўз аксини топган” [15].

Хулоса сифатида XXШЖ қисқа фаолияти даврида этник хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда маъмурий тузилиши бир неча маротаба ўзгартирилди. Шаҳарсозлик, миллий архитектуравий фикр-мулоҳаза юритиш, яъни архитектуравий ғоялар мамлакатда тўхтаб қолди, халқ услубларини рус-европа архитектураси эгаллади ва айтарлик даражада муваффақиятга эришмади. Хива хонлиги 1920-йилда тугатилди, Хоразмда ҳокимият рус

хукумати қўлига ўтди. Хива шаҳри ХХШЖ қиска беш йилга яқин даврида ҳеч бир бош режасиз стихияли равишда ривожланди. 1920-1924-йиллар даврига оид

бирорта ҳам харита йўқ. Ўтган асрдаги 1920-йилгача бўлган даврлардаги эришилган архитектура ютуқлари бу вақтга келиб бутунлай тўхташ даврини бошидан кечирди.

АДАБИЁТЛАР

1. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди. – Урганч, 199, Б. 49.
2. Ўз МА, Р-71 фонд, 1-рўйхат, 37-иш, 116-117-варақ; 45-иш, 25-29-варақлар; “Хоразм Халқ Жумҳурияти”(ўзбекча). Энциклопедик лугат. 2. Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси. 1988. п. 369. 5-89890-018-7.
3. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. – T.: Sharq, 2011. – B. 199.
4. Рахманов А. К исторической топографии Хивы XVI-XX веков. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.7/8 Ташкент, 1997. С. 13.
5. Обследование историко-архитектурной застройки территории “Дишан-Кала” в г.Хива. – архив ГлавНПУ. Т. 1987. Том II. стр.19
6. Пылатов Х.Ш. Архитектурно-планировочная структура старого Ташкента (конец XIX-XX вв.): кан. дисс. канд. арх.-Т.: ТАСИ. 1994 С.68.
7. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон. 1997. Б. 19.
8. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон. 1997. Б. 63.
9. Ганиев К., Қобулов А., Ризаев И., Ярмухамедова О. Анализ традиционного жилья на территории Ичан кала г.Хива. // проект УзНИПИ реставрация. Т.: 1983.
10. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон. 1997. Б. 49.
11. Рейимбоев Ш.С.Хоразм шаҳарларининг XIX аср охири – XX аср бошларидаги архитектуравий – тархий тизими. Ур.: 1997. Б. 19.
12. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон.1997. Б. 63.
13. Рейимбоев Ш.С.Хоразм шаҳарларининг... Б. 20.
14. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон. 1997. – 23 б.
15. Обследование историко-архитектурной застройки территории “Дишан-Кала” в г.Хива. – архив ГлавНПУ. Т. 1987. Том II стр.19



Maftuna TURDIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: turdiyevamaftuna@gmail.ru

tarix.f.d. prof.R.SH.Shamsutdinov taqrizi asosida

THE CONTRIBUTION OF UZBEKI WOMEN TO THE SECOND WORLD WAR

Abstract

This article is based on new information about the international situation in World War II, the beginning of the war, the patriotism of our people, and the courage at the front. Courage and tolerance have been symbols of the Uzbek people for centuries.

Key words: Germany, USSR, World War II, Poland, Uzbekistan, mobilization to the front, behind the front, industry, agriculture, contribution to victory, tolerance, humanity, selflessness of our people.

ВКЛАД УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН ВО ВТОРУЮ МИРОВОЮ ВОЙНУ

Аннотация

Статья основана на новых сведениях о международном положении во время Второй мировой войны, о начале войны, о патриотизме нашего народа, о мужестве на фронте. «Рикенглик» на протяжении веков был символом узбекского народа.

Ключевые слова: Германия, СССР, Вторая мировая война, Польша, Узбекистан, мобилизация на фронт, в тыл, промышленность, сельское хозяйство, вклад в победу, толерантность, человечность, самоотверженность нашего народа.

IKKINCHI JAHON URUSHIGA O'ZBEK AYOLLARNING QO'SHGAN HISSASI

Аннотация

Bu maqola ikkinchi jahon urushida xalqaro vaziyat haqida urushning boshlanishi, xalqimizning vatanparvarligi, frontdagi jasorati haqida yangi ma'lumotlar asosida yoritiladi. O'zbek xalqining, o'zbek ayollarining og'ir kunlarda ko'rsatgan jasoratni yana bir bor ko'rsatib beradi. Jasorat va bag'rikenglik asrlar davomida o'zbek xalqining timsoli bo'lib kelgan.

Kalit so'zlar: Germaniya, SSSR, Ikkinchi jahon urushi, Polsha, O'zbekiston, Frontga safarbarlik, Front orti, Sanoat, Qishloq xo'jaligi, G'alabaga qo'shilgan hissa, xalqimizning bag'rikengligi, insonparvarligi, fidokorligi.

Kirish. XX asrda insoniyat tarixiga ikkinchi jahon urushi nomi bilan kirgan jahon urushi insoniyatga katta talofatlar olib keldi. Ikkinchi jahon urushi 1939-yil boshlanib 1945-yil yakuniga yetdi. Bu 6 yillik urushda butkul boshqacha harakterga ega bo'ldi. Bu urush dunyodagi 61 davlatni va yer yuzi aholisining 80% ya'ni, 1,7 mlrd kishini o'z domiga tortdi. Insonlar o'z taffakur kuchi bilan tarixini yozib kelmoqdalar. Asrlar davomida insonlar boshidan ko'plab yo'qotishlar o'tdi. Bu yo'qotishlar ichida insonlar o'zlari sabab bo'lgan urushlar eng og'riqlisidir. Ikkinchi jahon urush insonlarga XX asr ko'rmagan og'riq va yo'qotishlarni olib keldi. XX asrga kelib insoniyat katta yutuqlarga erishdi va birinchi jahon urushining uzviy davomi hisoblangan ikkinchining oqibatlariga duchor bo'ldi. Ikkinchi jahon urushining asosiy janglar Gitler Germaniyasi va Sovet davlatlari hududida olib borilganligi sababli O'zbekiston ham ittifoq tarkibida urushda qatnashib o'zining munosib jasorat ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi[1]. Hayotimiz davom etar ekan biz o'tmishga qarab to'g'ri xulosalar chiqarishimiz lozim. Tariximiz bizga kelajak sari to'g'ri qadam tashlashni o'rgatadi, tariximiz kelajagimiz bilan uzviy bog'liq. Insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar insonlarga saboq berib kelmoqda. Bu saboqlar ichida urushlar insonlarga har doim katta talofatlar olib kelgan. Urushlar ichidagi eng og'riqlisi bu ikkinchi jahon urushi sanaladi. Ikkinchi jahon urushi Germaniya, Italiya va Yaponiyaning aybi bilan boshlangan jahon tarixidagi eng yirik urush hisoblanadi. XX asr fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirdi. Bu urushning kelib chiqishda asosiy rolni fashist Germaniyasi o'ynadi. 1939-yil 23-avgustda SSSR bilan Germaniya o'rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Lekin har ikkala davlat

manfatlari, avvalo, Polsha davlati bilan bog'liq edi. Germaniya 1939-yil 1-sentabrda Polshaga bostirib kirdi va ikkinchi jahon urushini boshlab berdi. 3-sentabr kuni Angliya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Bu davrda SSSR ikkinchi jahon urushi bahonasida o'z hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlashga kirishdi. 1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasi SSSR hududiga qo'qqisidan hujum boshladi. Hujum boshlanishi bilan butun ittifoq bo'yicha urushga safarbar etish ishlari boshlandi. Urush boshlanishi bilan bizning yurtimizdan ham urushga safarbarlik ishlari boshlandi bunda bizning ota-bobomiz botir o'g'lonlarimiz urushda o'z jonlarini tikishdi. Ularning jasorati, matonati bugungi yoshlarimiz ongiga qalbiga singib bormoqda. O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur[2]. Ikkinchi jahon urushi boshqa xalqlar singari bizning xalqimiz boshiga ham og'ir kunlarni soldi. 1941-1945-yillarda bashariyat boshiga mislsiz kulfatlar yog'dirgan ikkinchi jahon urushi frontlarida O'zbekistonlik jangchilar ham ta'rifga sig'mas qahramonligini namoyon etgan. O'zbekiston mudofaaing moddiy ehtiyojini ta'minlashda ham nimaiki zarur bo'lsa, barchasini ayamay sarfladi. Respublikaning har bir viloyati, shahar va tumani jangchilarga yordam qo'llarini cho'zishdi. O'zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'n minglab kishilarga boshpana berib mehribonlik va g'amxo'rlik namunalarni ko'rsatdilar. Minglab yetim bolalarni o'zbek oilalari o'z qarmoqlariga oldilar, farzandlaridan kam ko'rmay tarbiyaladilar. O'zbek xalqi jangga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamadi. Vatanga bo'lgan muhabbatdan iborat muqaddas tuyg'u og'ir urush davrida O'zbekiston xalqining ijtimoiy xulq-atvorini

namayon qiluvchi asosiy manaviy talab, bu xalq vatanparvarligining bitmas-tuganmas manbai bo'ldi.]

Tahlil va natijalar. Urushning dastlabki, og'ir kunlaridayoq sovet xalqi bosqinchilar ustidan g'alabaga erishishga butun kuchlarini bag'ishlashga intildilar. O'zbekiston xalqi mustabid tuzum tarkibida bo'lganligi uchun bu dahshatli urush g'am-g'ussasidan chetda qololmadi[3]. Urushning birinchi kunidayoq Toshkent to'qimachilik kombinatida Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida va boshqa joylarda umumshahar mitinglari bo'lib o'tdi. Unda ishchilar, aholining barcha qatlamlari fashizmga qarshi kurashga o'tlanishlarini bildirdilar. Safarbarlikni respublika miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, uni quydagicha bo'lganligini ko'ramiz. Dastlabki kunlardayoq Toshkent shahridan 14 mingdan ortiq ko'ngillilar frontga jo'nab ketish uchun ariza berdi. Urushning boshlaridayoq Toshkent shahridan 100 ming yigit va qizlar frontga yuborishlarini so'rab 1316 kishi ariza bergan bo'lsa, 1941-yil 4-avgustga kelib, ularning soni 2988 taga yetdi. Ularning 613 kishi xotin-qizlardan iborat edi. Urushning boshlarida o'zbekistonlik ayollar urushga ketgan otalari, aka-ukalari va turmush o'rtog'lari o'rniga dala ishlarida, jumladan traktor haydash, paxta terimi umuman olganda ayollarga munosib ishlar bilan emas balki og'ir yumushlarni ham bajardi. 1941-yilning 15-oktabriga qadar bo'lgan vaqt mobaynida 800 nafar xotin-qiz "frontga ketgan yigitlarning o'rini olish kerak" degan chaqiriq bilan chiqdi[4]. Dala ishlari, uy-yumushlari va bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmasdan bosqinchilarga qarshi kurashda qo'lga qurol tuta oladigan mard-u maydon ayollar ko'payib, endilikda ular ham urush frontlarida fashistlarga qarshi kurashda jasur o'g'lonlar bilan birgalikda kurashishni or-nomus masalasi deb hisoblab kurashga o'tlandilar. 1941-yil 5-iyulida Toshkent shahrining Oktabr rayonida miting bo'lib, unda 15 ming xotin-qiz qatnashdi. Bu mitingda "Qimmatli opa-singillar"! "Hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, sevimli Vatanimizni himoya qilaylik, dastgoh, transport, traktor va kombaynlarda ishlab turmish-o'rtoqlarimiz, aka-ukalarimizning o'rini bosaylik. Bu urushda hech kimni qo'l qovushtirib o'tirishga haqqi yo'q. Biz front orqasida g'alaba qozonamiz degan chaqiriqlari mavjud[5]. Mehnatga yaroqli erkaklarning armiyaga safar qilinganligi tufayli ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchilar va injener-texnik kadrlar tanqisligi paydo bo'ldi. Shu bois kadrlar tayyorlash muommosi avvalo, fabrika-zavod ta'limi maktablarida, hunar-bilim yurtlarida hal qilindi. So'ngra respublikada yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rganish va ikkinchi ixtisoslikni egallash yo'lga qo'yildi. O'zbekiston mehnatkashlari, avvalo, xotin-qizlar mamlakat boshiga tushgan kulfatlarni o'z kulfat-fojialari deb bildilar. 1941-yil iyul oyining o'zida Ursatevsk stantsiyasida 300dan ortiq, Samarqandda 250dan ko'proq, "Tashselmash" zavodida 220, Andijon parovoz deposida 120 dan ortiq xotin-qizlar frontga ketgan o'z otalari, akalari va turmush o'rtoqlarini o'rniga ishga kirib mardonavor mehnat qildilar. Bunday vatanparvarlik harakati butun O'zbekistonda, shu jumladan, qishloqlarimizda ham keng quloqch bo'ydi. O'zbek xalqi Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yi va Rossiya Federatsiyasi yerlariga qilingan hujumlarni jonajon o'z yurti – O'zbekistonga qilingan hujum hisoblanib har jabhada qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatdilar. VKP(b) mazkaziy qo'mitasi va davlat mudofaa qo'mitasining topshirig'iga binoan SSSR Gosplani 1941-yilning IV kvartali va 1942-yil uchun harbiy xo'jalik rejasini ishlab chiqdi va uni 1941-yil 16-avgustda Siyosiy byuroda tasdiqladi. Ana shu rejaga asosan mamlakatning G'arbiy mintaqalaridagi sanoat korxonalarini O'rta Osiyo, Ural va Sibir hududlariga ko'chirib joylashtirishga qaror qilindi. Qisqa muddat davomida 1941-yilning iyun-noyabr oylarida Ukraina, Belorussiya, Moskva va Leningraddan 1563 sanoat korxonasi jumladan 1360 tasi harbiy sanoatga oid Ittifoqning sharqiy mintaqalariga bulardan 250 dan ortig'i O'rta Osiyo respublikalarida joylashtirildi.

Sovetlar hukumati bu sanoat korxonalarini urush tufayli chorasizlikdan noilojlikdan turkiy respublikalar hududlarida joylashtirishga majbur bo'lgan edi. Holbuki urushga qadar O'rta Osiyo hududida sovetlar birorta og'ir sanoat korxonasi qurib ishga tushirmagan edi. O'rta Osiyoda joylashgan 250 dan ortiq sanoat korxonasining 100 dan ortig'i O'zbekiston hissasiga to'g'ri keldi[6]. Lentekstilmash, Rostselmash, Krasniy Aksay, Suma Kompressor va Dnepropetrovek karborund zavodlari Moskva Podmyomnik, Elektrostanok zavodlari shular jumlasidandir[7]. Keltirilgan korxonalarni nihoyatda qisqa muddatlarda ishga tushurishga erishildi. 1941-yilning oxirigacha shunday korxonalaridan 50 tasi ishga tushirildi. Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o'quvchilar, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar quliga belkurak, ketmon, lom olib mehnat qildilar. Urushdan oldingi yillar mobaynida qilingan ishlar bu vaqtda kunlar va oylar mobaynida bajarildi. Chunonchi, "Rosselmash" zavodi 25kunda "Qizil Oqsoy" zavodi bu yerga yetib kelgandan keyin oradan 29 kun o'tganda mahsulot ishlab chiqara boshladi. 1941-yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942-yilning o'rtalariga kelib respublika industriyasi mamlakat sharqidagi harbiy sanoat bazasini tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Respublikada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishning rivojlanib borishi bilan bir qatorda xom-ashyo va yoqilg'i energetika kengaytirish vazifasi ham keskin bo'lib turdi. Sanoat qurilishida o'lka aholisining barcha qatlamlari faol ishtirok etdi. Mehnat resuslarining eng yirik bazasini tashkil etgan qishloq mehnatkashlari bu ishga ayniqsa salmoqli hissa qo'shdilar. Faqat 1941-yilning ikkinchi yarmida harbiy obyektlar qurilishiga qariyb 500 ming kolxozchi jalb qilindi. Ularning orasida xotin-qizlar ham ko'pchilikni tashkil qilindi. Urush davrida respublikamiz xalq xo'jaligi harbiy izga solindi. Ishchi va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish tizimi joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa u 12-14 soatga yetar edi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Biroq, ishchi kuchining yetishmasligi tobora sezilib bordi. Idora xizmatchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. O'zbekiston fuqarolari urush yillarida fidakorona va matonat bilan mehnat qildilar. Sanoat ob'ektlari majburiy ravishda ishga tushirildi. Sexlardagi stanoklar zavodlar devorini tiklash bilan bir vaqtda o'rnatildi. Hatto tomsiz binolarda ham mahsulotlar ishlab chiqildi. Havo nihoyatda sovuq malakali ishchilar o'rnida keksalar, endigina o'qishini tamomlagan o'smirlar va xotin-qizlar ishlardi[8]. Urushning bir yarim yili mobaynida O'zbekiston sanoatida ayollar salmog'i 29 % dan oshib 1943-yilda 63,5%ni tashkil qilar edi. Bu davrda respublika qishloq ahli og'ir sinovlardan o'tdi. Qishloq xo'jaligi paxta yetishtirishga yo'naltirilganiga qaramay sanoatni xomashyo bilan aholi va armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlashdek og'ir vazfani ham o'z zimmalariga olishdi. Qishloq ahlining aksariyati frontga ketganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlarida asosan qishloq keksalari, yoshlari, xotin-qizlari mehnat qildi. Buning ustiga mamlakat g'arbiy hududidan keladigan texnika asboblari ham endi kelmas edi. Respublika qishloq xo'jaligidagi traktorlar, avtomobillar, otlarning bir qismi front ehtiyoji uchun olib ketilgan edi. Urush sababli qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida qat'iy ish tartibi belgilandi. Eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari 1,5 baravarga oshirildi, o'smirlar uchun ham 12 yoshidan boshlab mehnat kunlari belgilandi va ularni bajarish majburiy qilib qo'yildi. Respublika dehqonchiligining strukturasi keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Don ekiladigan sug'oriladigan yer maydonlari kengaytirildi. Natijada don mahsulotlari yetishtirish ko'payib, 1941-yil 4,8 mln sentner o'rniga 1943-yilda 5,3 mln sentner olindi

respublika ehtiyojlari qondirildi[9]. Respublikada 1941-yilda paxta tayyorlash rejasi 1940-yilga nisbatan 45 kun avval bajarilib davlatga 1mln 646 ming tonna hosil topshirildi. G'alla va texnik ekinlar maydonlarini kengaytirish uchun qo'shimcha yerlarni o'zlashtirish va yer fondidan samarali foydalanishga katta e'tibor berilgan. Natijada 1942-yilning bahorida qo'shimcha 220 ming gektardan ziyod yangi yerlar o'zlashtirildi[10].

Xulosa va takliflar. O'zbek xalqi urush davrida o'zi qiynalib yashayotganiga qaramay bu urushga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Urush sababli O'zbekistonda mehnatga yaroqli aholining soni qisqarib ketdi, har bir

xonadonga yopirilib kirgan urush qabohati odamlarni og'ir sinovlarga muhtalo shaharda ishchilar va xizmatchilarga kuniga 400-500g. dan qaramoqdagilarga esa 300g. dan non berish belgilangan edi. Amalda esa belgilangan kam olishar edi. Me'yorlangan taqsimot qishloq aholisiga taqsimot qishloq aholisiga taqsimot qishloq aholisi urush yillarida og'ir ahvolda yashardi[11]. Muxtasar qilib aytganda, o'zbek ayollari ikkinchi jahon urushi yillarida frontdagi qahramonona dushmanga qarshi hamda front orqasidagi xalqimizning fidokorona mehnati bilan fashistlar Germaniyasi va Minitaristlar Yaponiyasini tor-mor keltirishga muhim hissa qo'shdi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T. O'zbekiston. 2017.-b.5.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T. Sharq. 1998.-b.25.
3. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.- T. Sharq. 2000-b.435.
4. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T. Sharq. 2000.-b.440.
5. Azimov H.I. O'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushi yillarida. T. 2006.-b.12.
6. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. -T. Sharq. 2004.-b.327.
7. Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan xissa. -T. Fan.1975.-b.19-20.
8. Shamsutdinov R. Vatan tarixi.-T. Sharq. 2010.-b.340.
9. O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. -T.Q.B. T.1997.-b.173.
10. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.-T. O'zbekiston. 2020.-b.154.
11. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. -T. G'afur G'ulom. 2015.-b.371.
12. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.-T. O'zbekiston. 2020.-b.169.
13. Azimov H.I. O'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushi yillarida.T.2006.-b.31.



UDK: 904: 75.075 (584.4)

Muhabbat HAMIDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dosenti, t.f.d.
E-mail: hamidiva.2002@mail.ru

O‘zFA haqiqiy a‘zosi, t.f.d., akaemik D.Yu.Yusupova taqrizi asosida

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY OBIDALARINING ME‘MORIY BEZAKLARI XUSUSIDA
Annotasiya

Mazkur maqola O‘zbekiston milliy me‘moriy merosining mahobatli qismi hisoblangan Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy yodgorliklari bezaklarining o‘ziga xos tomonlarini yoritib berishga bag‘ishlangan. Maqolada milliy me‘morchilikda amaliy san‘at sohalari bilim hamda tajribalaridan foydalanishning ahamiyati masalasi tarixini yoritishga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur va Temuriylar davri, milliy me‘morchilik, me‘moriy obidalar, me‘moriy bezaklar, amaliy san‘at sohalari, naqqoshlik, tasviriy san‘at, ganchkorlik, xattotlik.

**ОБ АРХИТЕКТУРНОМ ДЕКОРЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА И
ТЕМУРИДОВ**
Аннотация

Статья посвящена освещению уникальных аспектов архитектурного декора исторических памятников эпохи Амира Темура и эпохи Тимуридов, которые считаются великолепной частью национального архитектурного наследия Узбекистана. В статье рассматривается история использования знаний и опыта прикладного искусства в национальной архитектуре.

Ключевые слова: Эпоха Амира Темура и Темуридов, национальная архитектура, памятники архитектуры, архитектурный декор, прикладное искусство, живопись, изобразительное искусство, керамика, каллиграфия.

**ABOUT THE ARCHITECTURAL DECOR OF HISTORICAL MONUMENTS OF THE AMIR TEMUR AND THE
TEMURIDS ERA**
Annotation

This article is dedicated to highlighting the unique aspects of the decoration of the historical monuments of Amir Temur and the Timurid era, which are considered a magnificent part of the national architectural heritage of Uzbekistan. In this article delves into the history of the utilization of applied art knowledge and expertise in national architecture.

Key words: Amir Temur and the Temurids' era, national architecture, architectural monuments, architectural décor, applied art, painting, fine arts, ceramics, calligraphy.

Kirish. Sharqona me‘morchilik an‘analari asosida bunyod etilgan Amir Temur va Temuriylar davri me‘moriy yodgorliklari nafaqat qurilish san‘ati, balki bir qator amaliy san‘at namunalari majmuining birlikda qo‘llanilishidan yaratilgan san‘at asarlaridir. Ular asrlar davomida o‘zbek xalqi tomonidan turli sohalarda erishilgan yutuqlar va orttirilgan tajriba natijalarini o‘zida namoyon etibgina qolmay, buyuk ajdodlarimiz yaratgan betakror moddiy madaniyat va amaliy san‘atning ko‘rgazmali namoyishida ham alohida o‘rin tutadi. Turli davrlarda bunyod etilgan me‘moriy yodgorliklarni o‘rganish nafaqat me‘morchilik, tasviriy san‘at, milliy hunarmandchilik, xattotlik, haykaltaroshlik kabi amaliy san‘at turlarining rivoji, balki dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar tarixini yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili. Amir Temur va Temuriylar davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari xususida “Temur tuzuklari”da, o‘z davrining tarixchi olimlari Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Fasix Havofiy, ispaniyalik elchi Rui Gonsalez de Klavixo asarlarida qiziqarli tarixiy faktlar yozib qoldirilgan. Ushu mualliflar Temuriylar davrida yashab, ijod qilgan va ko‘rgan-kechirganlari asosida yoritib berilayotgan masalaga doir qimmatli ma‘lumotlarini o‘z asarlarida yozib qoldirishgani bilan e‘tiborga molikdir. Temuriylar davrida bunyod etilgan va bizgacha qisman saqlanib qolgan me‘moriy yodgorliklarni tadqiq etgan B.Denike, V.Vyatkin, A.Semyonov, I.Notkin, B.Zasipkin, M.Masson, G.Pugachenkova, A.O‘ralov, M.Yusupova, A.Tondi va boshqa bir qator tarixchi hamda san‘atshunos olimlarning asrlari hamda ular tomonidan yaratilgan arxiv hujjatlarida esa tadqiq etilgan obidalarining o‘rganilishi,

ularning keyingi davrlarga oid tarixi, ta‘mirlash-tiklash, muxofaza qilinishiga doir masalalar yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Amir Temur va Temuriylar davri me‘moriy yodgorliklarni tarixiy-madaniy ahamiyatini ochib berishda tarixiy manbalar va tahlilga tortilgan tadqiqot ishlari xolislik, ilmiylik, tarixiylik, tizimlilik, tarixiy davrlashtirish, milliy qadriyatlarni ulug‘lash tamoyillari asosida qiyosiy tahlil etilgan. Maqolada, shuningdek, fanlararo yondashuvlar, xususan, tarixiy yodgorliklarni kuzatish, systematic va statistic tahlildan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Milliy me‘morchilik tarixida Amir Temur va Temuriy davri me‘morchiligi yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tarilgan davr sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, bu davrda hukmdorlar irodasiga binoan me‘morchilikda shakl mahobatli va bezaklar hashamdor hamda nafis bo‘lishi hokimiyatni ulug‘lash vositasi sifatida qo‘llanilgan. Ulug‘vor inshootlarni bunyod etuvchi me‘mor va hunarmandlarga Temuriy hukmdorlar tomonidan katta e‘tibor qaratilgan. “Temur tuzuklari”da keltirilishicha, munajjmlar va muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etilib, bog‘u bo‘stonlarning loyiha-tarhi chizdirilgan[4]. Ushbu davrda bunyodkorlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, buyurtmachi ya‘ni hukmdor talabining qay darajada bajarilishi bunyodkorlik ishlariga mas‘ul shaxslarning hayot-mamot masalasini hal etgan. Shu sababdan, Temuriylar davriga oid yodgorliklar hashamat va mahobatda oliy darajada bo‘lishiga erishilgan. Bu davr inshootlarini bunyod etgan me‘morlar, bezak san‘ati ustalari o‘z sohasining yetuk mutaxassisarlari bo‘lishgani haqida tarixiy manbalarda ma‘lumotlar saqlanib qolgan[5]. Shu sababli ham, Amir

Temur va Temuriylar davri me'morchiligi yuksak darajadagi rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "ushbu davrdan avval va keyin ham Movarounnahr hamda Xurosonda me'morchilik bu darajagagi rivojlanish bosqichiga ko'tarilmagan"[9]. Ushbu davrda mamlakatning markaziy shaharlarida qat'iy me'moriy g'oyaga bo'ysungan o'rta asr shaharlari bunyod etilgan. Ularda mahobatli inshootlarni o'z ichiga olgan me'moriy majmualar shakllantirilgan, mavjudlari yangi ulug'vor inshootlar bilan boyitilgan. Ayniqsa, Temuriylar davlati poytaxt shaharlari: Samarqand va Hiro, shuningdek, hukmdorlarning e'tibori markazida bo'lgan Kesh va Buxoroda saqlanib qolgan ushbu davrga oid me'moriy obidalar bunga yaqqol misol bo'ladi. Ularni tadqiq etgan turli soha mutaxassislari tomonidan tarixiy obidalarni yaratgan xalq daholari mahoratiga yuqori baho berilgan, xususan, mahalliy usta-me'morlar, mohir hunarmandlar bilim va tajribalari e'tirof etilgan[1; 2; 3].

Amir Temur va Temuriylar davrida shaharsozlik va me'morchilik madaniyati avvalgi davr an'alarini davom ettirgan holda yangi me'moriy uslub, mahobatli ko'rinish va hashamatli bezaklar bilan boyitilgan. Bunga avvalo Amir Temur davlatida vujudga kelgan barqaror vaziyat va ijodiy muhit sabab bo'lgan. Ushbu davrda mamlakatning turli burchaklarida tug'ilib o'sgan va o'ziga xos madaniyat egasi bo'lgan ilm ahli, hunarmand hamda usta-me'morlar poytaxt shaharlarga ko'chirib kelingani, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda ularning bilim va tajribalaridan keng foydalanilgani mamlakatni rivojlantirishga xizmat qilgan. Buning natijasida avval boshdan bir qator amaliy san'at sohalari bilim va tajribalari asosida rivojlantirilgan milliy me'morchilik, endilikda turli xalqlarga oid me'morchilik an'alar bilan boyitilib, dunyoga mashhur tarixiy obidalarning bunyod etilishiga sabab bo'lgan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "Temuriylar davri me'morchiligi faqat foyda olishni ko'zlovchi qurilishdan farqli o'laroq, sof amaliy va kundalik turmush xarakteriga ega bo'lgan binolarga ham badiiy obraz timsolini bashx eta olgan. Ana shu jihatdan bu davr me'moriy san'ati avvalgi davrlarga nisbatan rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilgan. Bu yangilik dadil muhandislik-texnik vazifalar qo'yishda, yangi yechimlarni ishlab chiqishda, me'moriy bezaklarning boyligida ko'rinadi"[9]. Samarqandda bunyod etilgan inshootlarning qurilishida o'z davri uchun kashfiyot darajasidagi yangicha muhandislik konstruksiyalarining ishlatilishi bunga misol bo'ladi. Shu jumladan, mahobatli gumbaz tuzilishi ushbu davr yodgorliklarini bunyod etgan me'morlar yechimini topgan mas'uliyatli muhandislik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Temuriylar davrida aniq fanlar rivojida kechgan yuksak taraqqiyot me'morchilikda ham namoyon bo'lgan. Bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklarni o'rganish, aynan shu davr me'morchiligining o'ziga xosliklarini ko'rsatib berishga asos bo'ladi. Xususan, Shohi Zinda, Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasi inshootlari, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim madrasa va masjidi, Ulug'bek madrasalarining old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi handasaviy tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati olingan. Shuningdek, bu davrda qurilish materiallari, tuzilmalarining yangi turlarini takomillashtirishga va qurilish jarayonini yuksak darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda, Sharafuddin Ali Yazdiyning 1396 yilda Bog'i Dilkushoda yozgi saroy barpo qilinishi to'g'risida quyidagi hikoyasi e'tiborga molikdir: "... balandligi bir gazga yetar-etmas saroy koshinkor naqsh va qoplama ashyolarni tayyorlash boshlandi. Sangtaroshlar tosh yo'nishga, musavvirlar surat chizishga, duradgorlar yog'och o'yishga va eshik tayyorlashga kirishdilar. Palos to'quvchilarga esa xonalar va shohnishinlarni o'lchab chiqib, tegishli kattalikda palos to'qish buyurildi. Tunlari shamchiroq yoqib qo'yilar, har bir ishning o'z sarkori bor edi. Shunday uzunlikdagi va shunday baland ayvoni

bo'lgan saroy o'n olti kunda qurib bitkazildi"[5]. Bundan ko'rinib turibdiki, bezak va sayqal ishlari binoning asosiy hajmi qurib bitkazilganidan keyin emas, balki u bilan baravar amalga oshirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda markaziy shaharlarning asosiy me'moriy majmualarida joylashgan inshootlarning ham ichki va tashqi bezaklari bir vaqtning o'zida yaxlit tarzda, bir-biriga mos ravishda amalga oshirilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Darhaqiqat, qurilish va bezatish jarayoniga o'z sohasining yetuk mutaxassislari jalb etilgan ushu davr inshootlari boshqa davrlarda bunyod etilgan obidalarga nisbatan juda serhashamligi bilan ajralib turadi. Bu haqida manbalarda ham ushu inshootlarning baland peshtoqlari, ularning go'zalligi, salobati, betakrorligi, nafis bezaklariga ta'rif berib o'tilgan [5; 6; 7; 8].

Mazkur davr me'morlari va hunarmandlari uchun ajdodlar tajribasidan foydalangan holda sohaga oid an'analarni takomillashtirish va yangi madaniy aloqalar asosida shakllantirilgan yangiliklarni ishlab chiqish davr talabi hisoblangan. Bu jarayon binolarni qurish hamda bezak mavzularini boyitishda yangicha uslub va g'oyalarni qo'llashni talab etgan. Yuksak texnik darajada ishlangan xilma-xil me'moriy bezaklar Samarqand me'morchilik maktabining Temuriylar davridagi taraqqiyot bosqichini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi[10].

Xususan, O'zbekiston tarixiy yodgorliklarining deyarli barchasida ma'lum bir o'rinda ishlatilgan ganchkorlik o'zbek xalq amaliy san'atining yorqin namunasi hamda milliy me'morchilikning ajralmas qismi hisoblanadi. Nozik va nafis ko'rinishga ega ganchkori bezaklar milliy me'morchilik taraqqiyoti rivojida o'ziga xos o'rin tutadi[11]. Ganchning tarixiy inshootlarni bezatishdagi ahamiyati masalasini tadqiq etgan mualliflar quyidagilarni ta'kidlab o'tishgan: "Milliy me'morchilik maktablari an'alariga ko'ra, har qanday binoni bezatishda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi turini tanlash hamda qo'llash muhim hisoblanadi. Kichik xonaga mayda tekis o'ymakor va unga mos bo'lgan pardoz turi, katta mehmonxonalar (zallar)ga esa yirik yoyma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi. Ganch o'ymakorligi yirik o'yama, chuqur o'yama, yassi o'yama, qirma, zamini ko'zgulni, zamini rangli o'yama, chizma pardoz, panjarasimon o'yama, zanjira, hajimli o'yama turlaridan iborat"[11]. O'zbekiston tarixiy yodgorliklari, jumladan, Amir Temur va Temuriylar davri yodgorliklarida ganch o'ymakorligining sanab o'tilgan barcha turlari ishlatilgan. Masalan, O'rta Osiyoda Islom dini ta'limoti tarqalgunga qadar bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarda haykalsimon ko'rinishga ega katta hajimli ganchkori bezaklar ko'p ishlatilgan (Buxorodagi Varaxsha yodgorligi). Muqarnas va qubba esa o'rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu uslub qo'llanilgan me'moriy yodgorliklar respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Xususan, Samarqanddagi Temuriylar davri obidalaridan, Bibixonim jome' masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda me'moriy majmuasi inshootlari, Buxorodagi Minorai Kalon va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin[1].

Binolarning me'moriy bezaklari nafaqat bezak, balki ularning qulayliklarini oshiruvchi vosita sifatida ham qadrlangan. Xususan, O'zbekistonning turli hududlarida inshootlarni bunyod etishda tabiiy sharoitga katta e'tibor qaratilgan. Tabiiyki, bunda ularning bezaklariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, binolar qishda issiq, yozda salqin, yorug', keng va chiroyli bo'lishi nazarda tutilgan. Misol uchun, binolarning mehmonxonalari salqin va yorug' bo'lishi zarur bo'lib, shunga yarasha bezak turi ham tanlangan. Ular asosan shimolga qarab qurilgan. Mehmonxona devorlarida deraza, tokcha, taxmonlar uchun joy qoldirilib, ular yorqin ganchkori naqshlar bilan bezatilgan. O'rganilgan tarixiy yodgorliklarning me'moriy bezaklari asosan uch qismga bo'lingan. Ya'ni, devorning pastki qismi izora, o'rta qismini tokcha, taxmon, namoyon va dahana bilan, yuqori qismi esa

sharafa bilan bezatilgan. Taxmon, tokcha, deraza chetlari ko'pincha ganchkori zanjira asosida hoshiyalangan[11].

Milliy me'moriy inshootlarni bunyod etishda va ularning bezaklarini boyitishda qo'shni hududlar, xususan, Eron, Gurjiston, Armanistondan ko'chirib keltirilgan usta-me'morlarning bilim va tajribalaridan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi husn-jamolini dunyo me'morchiligida, shu jumladan, O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida yaqqol namoyon etgan va bu jarayon davom etib kelmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarning badiiy kompozitsiyasi va ishlash uslubi o'ziga xosligi bilan farq qiladi"[11]. Ushbu sohadagi madaniy aloqalar izi milliy me'moriy yodgorliklarda ko'rgazmali tarzda o'zini namoyon etgan bo'lib, ularning tarixiy-madaniy ahamiyatini asoslab berishga xizmat qiladi.

O'rganilayotgan davr tarixiy obidalarini bezatishda hattotlik san'atidan ham keng foydalanilgan. Temuriylar davri yodgorliklarida epigrafik bezaklar maxsus ajratilgan binolarning peshtoq, ravoq, poy gumbaz, devor, minora va boshqa ko'zga tashlanadigan qismlarida yirik xatda xattotlik san'ati asosida olti xil yozuvda amalga oshirilgan. Amir Temur va Temuriylar davri yodgorliklarida epigrafik yozuvlarning "kufiy" hamda "suls" xatida bitilgan bezaklari ko'p uchraydi. Ushbu bezaklar binoning tashqi tarafiga g'ishtin sath ustida ko'k, zangori, moviy va oq rangli sirli koshinlarda qadama naqshlar shaklida, bino ichiga esa epigrafik bezak uchun ajratilgan pannoga bo'yoqlar asosida tushurilgan. Mutaxassislarining ta'kidlab o'tishicha, "handasaviy, ya'ni geometrik naqshga yaqin "kufiy" xatidagi girih naqshlar ulug'vor devoriy va poy gumbazlarni o'rab turgan naqshlarda, peshtoq hoshiya bitiklarida dastlab "devoniy" xati, keyinchalik esa "suls" xati yetakchi o'rin egallagan"[9]. Epigrafik bezaklarda asosan muqaddas Qur'on suralari, hikmatli so'zlar, shuningdek, inshootlarni bunyod etgan hukmdorlar, usta-me'mor va xattotlar nomlari keltirib o'tilgan. Xususan, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasida joylashgan Tuman og'o majmuasi peshtoqida eronlik xattot Xoji Bang'ir Tabriziy, mazkur majmuada joylashgan masjid eshiklari yog'och o'ymakorligida Yusuf Sheroziy, Muhammad Sulton xonaqo va madrasa majmuasi topilmalari orasida usta me'mor Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy, Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madarasi epigrafik naqshlari orasida esa Ismoil ibn Tohir Isfaxoniy, Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi bitiklari asosida uning bosh me'mori Shams Abdulvahob Sheroziy, koshinkor bezaklarini bajargan usta Xoji Hasan Sheroziy, ichki bezaklar ustasi Izoiddin bin Tojiddin Isfahoniy tomonidan, Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqidagi yozuvlardan tabrizlik usta Muhammad Yusuf tomonidan ishlangani haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Samarqand tarixiy obidalaridagi bitiklarda ayrim ustalarning nomidagi nisbada Movarounnahr shaharlari nomi uchraydi, boshqlarida esa bunday emas, chunki ular samarqandlik ustalardir. Masalan, Shohi Zindadagi Xoja Ahmad maqbarasida Faxr-Ali, Shodimulk og'o maqbarasida Badriddin va Shamsiddin, shuningdek, bezak ustasi Zayniddin Buxoriylarning nomlari shular jumlasidandir. Majmuadagi nomsiz maqbarada esa usta Ali va Alim Nasafiylarning nomi ko'rsatilgan"[9].

Me'morchilikda keng qo'llanilgan bezak turlaridan yana biri mahalliy kulollar tomonidan ishlab chiqilgan rangli va rangsiz parchin[18] hamda koshin[19]lardir. Ular boshqa turdagi bezaklar (islamiy, girih, epigrafik, zoomorf, astral)ga

asos sifatida ham xizmat qilgan. Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida rangli metallar hamda qimmatbaho toshlardan foydalanish ham keng yo'lga qo'yilgan. Rangli metallardan asosan oltin, mis, jez hamda temirdan gumbazlarning ichki tomoni, eshik, panjara, tokcha kabi ichki inter'erlarini bezatishda keng foydalanilgan. Xususan, ushbu davr me'moriy yodgorliklarida muhim tarixiy dalillar aks etgan maxsus metal taxtachalarga bitilgan epigrafik bezaklar saqlanib qolgan. Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida qimmatbaho toshlardan feruza, zumrad, dur, yoqutdan ham bezaklarni boyitishda foydalanilgan[12].

Temuriylar davrida, xususan, Mirzo Ulug'bek davrida mamlakatda tasviriy san'at va naqqoshlikning bir qator yo'nalishlari rivojlantirilib, muhtasham inshootlar (madrasa, xonaqoh, rasadxona va bog'lardagi saroylar)ni bezatishda ushbu bezak turidan keng foydalanilgan. Misol uchun, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi peshtoqidagi o'n ikki burj (Falak burji) va Quyosh tasviri tushurilgan me'moriy bezaklarni ko'rsatib o'tish mumkin. Falak burji mazmunidagi bezaklar madrasa binosi ravoqlarida ham uchraydi[13]. Xuddi shu kabi rang-tasvir san'atiga oid bezaklar Ulug'bek rasadxonasi ichki devor va shiftlariga ham ishlangan. Rasadxona atrofida bunyod etilgan bog'larda ham shunday tasviriy san'at namunalari bilan bezatilgan sayroylar bo'lgan. Ayniqsa, "Bog'cha" deb nomlangan bog'da bunyod etilgan Chinniyxona saroyi bezaklari Xitoylik me'mor va naqqoshlar tomonidan Chinniy rang-tasvir bezaklari bilan sayqallangani haqida ma'lumotlar mavjud[16].

Amir Temur va Temuriylar davrida markaziy shaharlarda bunyod etilgan inshootlar qurilishiga nafaqat mahalliy balki Eron va Xurosondan kelgan usta-me'morlar jalb etilgan. Shuningdek, mahalliy me'morchilik va amaliy san'at maktablaridan Samarqand, Buxoro, Xorazm ilmiy maktablari namoyandalari yuqori obro'-e'tiborga ega bo'lib, ular nafaqat Movarounnahrda, balki O'rta Sharq mamlakatlari me'morchiligining nodir namunalari bunyod etish uchun qo'shni davlatlarga taklif etilgan [17]. Buning natijasida XV–XVII asrlarda O'rta Osiyo me'morchilik va hunarmandchilik maktablarining o'zaro va qo'shni hududlarda ta'sir jarayoni jadallashgan. Bunga ushbu hududlarning yaqin joylashganiga emas, balki ular o'rtasidagi o'zaro tarixiy-madaniy aloqalarning rivoji sabab bo'lgani shubhasizdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'rta Osiyo me'morchiligining keyingi davrlarda yanada taraqqiy etishida Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligi va amaliy san'at turlari sohalarida erishilgan yutuqlarning ahamiyati beqiyosdir. Bu davrda me'morchilikning yuqori darajaga ko'tarilishi hamda dunyoga mashhur me'moriy obidalarining bunyod etilishida nafaqat mahalliy balki qo'shni hududlardan ko'chirib keltirilgan usta-me'mor hamda amaliy san'at namoyandalari qo'shgan hissasi ham katta bo'lgan. Respublikamiz hududida joylashgan tarixiy obidalar, xususan, Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari milliy me'moriy merosning tarixiy-madaniy ahamiyatini ko'rgazmali tarzda namoyish etuvchi moddiy-ma'naviy manba sifatida ham e'tiborga molikdir. Ularni ilmiy o'rganish, muxofaza qilish hamda kelajak avlodga munosib tarzda etkazib berish nafaqat soha mutaxassislari balki barcha fuqorolarining muqaddas burchi hisoblanadi. Mazkur madaniy me'ros namunalaridan unumli foydalanish esa Respublika iqtisodiy salohiyatini oshirishda, xalqaro madaniy aloqalar, jumladan, ichki va tashqi turizmni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR

1. O'zR MA F-2286, 1-ro'yxat, 189-ish. – 13 varaq.
2. O'zR MA F-2286, 1-ro'yxat, 195-ish. – 11 varaq.
3. O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yxat, 347-ish, 5-varaq.

4. Темур тузуклари. / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Караматов таржимаси. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 66.
5. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Сўзбоши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад ва Ҳайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 199-202.
6. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи та'рихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. – Тошкент: Мехнат, 1992. 1-китоб. – Б. 314-315.
7. Фасиҳ Ҳавафий. Мужмал Фасиҳи / Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Ю.Юсупованики. – Тошкент, 2018. – С. 125, 158, 166.
8. Клавихо Р.Г. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406 йиллар) / Таржимон О.Тоғаев. Масъул муҳаррир Муҳаммад Али, – Тошкент, 2010. – Б. 194-195.
9. Темур ва Улуғбек даври тарихи / Бош муҳаррир Амадали Аскарлов; масъул муҳаррир Оқилхон Одилхон. – Тошкент, 1996. – Б. 165-200.
10. Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средней Азии. – Москва-Ленинград, 1939. – С. 150-199.
11. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Мехнат, 1991.
12. Лапин С. Перевод надписей на исторических памятниках города Самарканда. – Самарканд, 1896. – С. 51-72.
13. Аҳмад Тонди. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Тимуридов: Дисс... канд. искусствознания. – Москва, 2003. – 205 с.
14. Семенов А. Надписи на надгробиях Тимура и его потомках в Гур-Эмире // Эпиграфика Востока. Вып. II. Москва-Ленинград, 1948. – С. 49-62.
15. Ноткин И. И. Сталактиты XIV в. из ансамбля Шахи-Зинда / Зодчество Узбекистана. Вып. II. – Ташкент, 1970. – С. 239-254.
16. Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият. – Тошкент: А.Қодирий нашриёти, 1994. – Б. 61-67.
17. Юсупова М. Бухарская школа зодчества XV–XVII вв.: Особенности и динамика развития: Дисс... д-ра архитектуры. – Ташкент, 2000. – С. 14-15.
18. parchin - mayolika
19. koshin - mozaika